



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI



RESPUBLIKA
TA'LIM MARKAZI

UMUMIY O'RTA TA'LIMNING MILLIY O'QUV DASTURI



CHAQIRUVGA QADAR
BOSHLANG'ICH
TAYYORGARLIK



ЎОУМХА



MUNDARIJA

1.	AMALIY FANLAR TASNIFI	4
1.1.	Amaliy fanlar integratsiyasi.....	4
2.	MAKTAB BITIRUVCHILARIGA AMALIY FANLAR BO'YICHA QO'YILADIGAN TALABLAR.....	7
2.1.	Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi.....	7
2.2.	O'z-o'zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi.....	7
2.3.	Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi.....	7
2.4.	Amaliy fanlar orqali tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish bo'yicha tavsiyalar.....	8
3.	UMUMIY O'RTA TA'LIMDA CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANINI O'QITISH.....	9
3.1.	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'qitish konsepsiyasi	9
3.2.	Maktab bitiruvchilariga Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha qo'yiladigan talablar	17
3.3.	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha o'quvchilarga sinflar kesimida qo'yiladigan talablar	19
4.	CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANI O'QUV DASTURLARI	22
4.1.	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, 10-sinf.....	36
4.2.	Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik, 11-sinf.....	42



AMALIY FANLAR TAVSIFI VA PREDMETLAR INTEGRATSIYASI

Amaliy fanlar blok-moduli o'z ichiga Musiqa madaniyati, Tasviriy san'at, Chizmachilik, Texnologiya, Jismoniy tarbiya va Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quv predmetlarini qamrab oladi hamda o'zaro aloqadorligini ta'minlaydi.

O'quvchilarni ma'naviy dunyosini boyitish, borliqni idrok etishda uning yaxlitligi, takrorlanmasligi va uyg'unligini anglash, hayotiy tasavvurini amaliy faoliyatida ifodalash orqali tafakkurini o'stirish, ijodkorlikni rivojlantirish, innovatsion g'oyalarni yaratish hamda kundalik hayotga tadbiiq etishga o'rgatish amaliy fanlar blok-moduli orqali amalga oshiriladi.

Shuningdek, o'quvchilarni ma'naviy, badiiy, ahloqiy madaniyatini rivojlantirib, ijodiy mahorat, badiiy-estetik didini o'stirishda, kasb-hunarga yo'naltirish bilan birga, jismonan baquvvat bo'lib, sog'lom turmush tarziga amal qilish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va harbiy xizmatga tayyorlash, hayotiy ko'nikmalarni rivojlantirish Amaliy fanlar tarkibida olib boriladi.

Hozirgi kunda yangiliklar, yuqori texnikaviy-texnologik innovatsiyalar, ma'lumotlar oqimining o'sib borishi hayotning barcha jabhalarida to'rtinchi texnologik inqilobni yuzaga keltirmoqda. Shaxsning qiziqishlari va jamiyatning talablari o'zgarmoqda. Kundalik hayotni ilmiy-tadqiqot, texnika taraqqiyoti konsepsiyalari bilan ta'limning integrativ yondashuvini STEAM ta'limi joriy etadi. Bunday yondashuvdan maqsad - ta'lim berish orqali butun dunyo taraqqiyoti va iqtisodiyotining barqaror rivojlanishini ta'minlashda maktab, jamoatchilikni jalb qilib, ilmiy savodxonlik, raqobatbardoshlikni targ'ib qilishga qaratilgan. Ilgari mehnat darslarida qizlar faqat fartuk tikishni, o'g'il bolalar yog'ochga va metalga ishlov berishni, tasviriy san'at va chizmachilik darslarida rasm va chizmalar qalam bilan qo'lda chizishni o'rganishgan bo'lsa, hozirga kunda buning o'zi yetarli bo'lmay qoldi. Bugungi kunda butun dunyo maktab o'quvchilarini robototexnika, modellashtirish, konstruksiyalashtirish, programmalashtirish, 3D-loyihalashtirish va boshqa ko'plab yangiliklar qiziqtirmoqda. Bunday qiziqishlarni amalda sinab ko'rish uchun yanada murakkabroq bilim, ko'nikma, malakalarni egallash va kompenesiyalarni shakllantirish zarur bo'ladi. Bu o'rinda nafaqat bilish va uddalay olish balki, tadqiqot olib borish va ixtiro qilish talab etiladi.

STEAM-ta'limi DTS asosida beriladigan bilim, ko'nikma va malakalarning ilmiy jihatdan qanday qilib kundalik hayot bilan bog'liqligini ko'rsatish orqali sinfdagi dars mashg'ulotlari va maktabdan tashqari ta'lim jarayonida o'quvchilarning o'quv tadqiqotlarini o'tkazish, tajribalarni bajarib ko'rish, loyihalashtirishga yo'naltirilgan ijodkorligini tarbiyalash, yangiliklar yaratishga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishga qaratilgan.



Musiqa madaniyati o'quv predmeti o'quvchilarning ma'naviy, badiiy va axloqiy madaniyatini rivojlantirishga, milliy g'urur va vatanparvarlik tarbiyasini amalga oshirishga, ijodiy mahorat, nafosat va badiiy didni o'stirishga xizmati qiladi. Shuningdek, o'zbek, klassik va zamonaviy san'at haqidagi boshlang'ich bilimlarni o'zlashtirishga, musiqiy asarlarni tinglab tushunish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarni egallash hamda hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan.



Tasviriy san'at o'quv predmeti o'quvchilarda tasviriy savodxonlikni rivojlantirishga, badiiy-estetik tafakkur va emotsional sezgirlikni o'stirish orqali ijtimoiy hayotda zarur bo'lgan bilimlarni egallashga xizmat qiladi.



Texnologiya o'quv predmeti o'quvchilarda texnik ijodkorlikni, qobiliyatni, tafakkurni rivojlantirish, dars jarayonida tabiiy, metall va metallmas materiallarga texnologiya asosida ishlov berish usullarini o'rgatish orqali kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, hunarmandchiligi asoslari, ishlab chiqarish va ro'zg'orshunoslik asoslari, elektrotexnika ishlari, elektronika asoslari, ijodiy loyiha tayyorlash texnologiyasi, kasb-hunarga yo'llash bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan. O'quv predmetini o'qitish orqali o'quvchilarning texnik ijodkorlik qobiliyati, kreativ ko'nikmalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.



Chizmachilik o'quv predmeti o'quvchilarning grafik savodxonligi, fazoviy tasavvuri va tafakkurini rivojlantirishga, texnik detal va buyumlarning chizmalarini o'qish va uni tuzish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, o'quv predmeti o'quvchilarning fazoviy tasavvurini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratiladi.



Jismoniy tarbiya o'quv predmeti o'quvchilarni jismonan sog'lom baquvvat, vatanga sadoqatli bo'lish ruhida tarbiyalash orqali jismoniy sifat: kuch, tezlik, chaqqonlik, chidamlilik hamda egiluvchanlik malakalarini rivojlantirish, o'quvchilarning salomatligini saqlash, ularning jismonan yetuk bo'lib yetishishi uchun shart-sharoitlar yaratish va mashg'ulotlarda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi.



Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik o'quv predmetini o'qitishda o'quvchilarga harbiy qasamyod, harbiy ish asoslarini, zaruriy harbiy bilimlarini va amaliy ko'nikmalar, shuningdek, harbiy chiniqish, ruhan bardam bo'lish, fuqaro himoyasi va tibbiy bilim asoslarini egallash hamda ularni hayotda qo'llay olish layoqatini shakllantirish ko'zda tutilgan.

Amaliy fanlar blokidagi fanlari o'zaro ona tili va adabiyot, matematika, biologiya, kimyo, fizika, geografiya va boshqa fanlar bilan bog'lab o'qitiladi.

Dars jarayonida quyidagi fan yo'nalishlari bilan o'zaro aloqalar amalga oshiriladi:



Ona tili va adabiyot darslaridan amaliy fanlar blokiga oid atamalar bilan so'z boyligi boyitiladi, og'zaki va yozma nutq birligi orqali atamalar qo'llaniladi;



Tarix darslaridan milliy an'analar, urf-odatlar, o'zbek va jahon san'ati tarixi, sport turlarini kelib chiqish va rivojlanish tarixi, harbiy san'at tarixi bilan tanishadilar;



Matematika darslaridan turli matematik o'lchovlar, bolalar fikrlash qobiliyatini rivojlantirish va hisob-kitoblardan foydalanadilar;

Geometriya darslaridan yassi va fazoviy hajmiy shakllar: diagonal, to'rtburchak, parallelepiped va tekis prizma, piramida, silindr, konus va sharlarni simmetriyasini o'rganadilar;



Fizika darslarida mexanik harakat, kinematikaning asosiy tushunchalari, mexanik ish va kinetik energiya, mexanik ish va potensial energiyalarni qo'llash, yorug'-soya munosabatlari, mexanik, dinamik, statik harakatlar, ballistika, spektr ranglarni hosil bo'lish qonuniyatlaridan foydalanadilar;



Kimyo darslarida metallar va ularning birikmalari, eng muhim materiallar va ularning ishlab chiqarish asoslari, bo'yoqlar, kimyoviy qurollar, portlovchi moddalar, ularning turlari va xususiyatlarini biladilar;



Biologiya darslarida jonzorlar, hasharotlarning plastik-anatomik tuzilishi va o'simliklarning turlari zaharlovchi moddalar, organizmda moddalarning almashinuvi, hamda ranglarini o'rganadilar;



Geografiya darslarida dunyodagi tabiiy resurslarni olinishi va qo'llanishi hamda iqtisodiyotda tutgan o'rni, tabiat va uning elementlarini (osmon, tog'lar, adirlar, kengliklar, daraxtlar, daryolar va h.k.) geografik joylashuvi, topografik xaritalarni o'qish, haqidagi ma'lumotlardan foydalanadilar;



Informatika darslarida o'rganilgan turli grafik dasturlarga innovatsion yondashgan holda, tasvirlar, formatlar, raster tasvirlar, ularning parametrlaridan foydalanishni, tasvir maydonlarini tanlashni, chizmalar chizishni, qo'shinlarni avtomatik ravishda boshqarish asoslarini, diagramma tuzishni o'rganadilar.



AMALIY FANLAR BO‘YICHA O‘QUVCHILARDA RIVOJLANTIRILADIGAN UMUMIY KOMPETENSIYALAR (umumiy o‘rta ta’lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan talablar)

Estetik madaniyat va ijodkorlik kompetensiyasi

go‘zallik va san’atni idrok etadi;
mustaqil ishlashga ijodiy yondashib, kreativ fikrlaydi;
yakka va jamoa bilan hamkorlikda ijodiy faoliyat yuritadi;
ijodiy faoliyatini to‘g‘ri rejalashtirib, erishilgan natijasini tanqidiy baholay oladi va o‘z mehnatidan zavqlana oladi;
muammolar yechimiga muqobil yondashadi va to‘g‘ri qoror qabul qila oladi;
mehnatsevarlik, mas’uliyatlilik hamda ishchanlik, faollik sifatlarini egallaydi;
konstruktiv fikrlay oladi, g‘oyalarini amaliyotga tadbiiq eta oladi;
loyihalash va tadqiqotchilik ko‘nikmalarini egallaydi.

O‘z-o‘zini rivojlantirish va asrash kompetensiyasi

kun tartibi, shaxsiy va jamoat gigiena qoidalariga rioya qiladi;
jismoniy mashqlarni inson salomatligi uchun ahamiyatini biladi va qo‘llaydi;
tanish va notanish vaziyatlarda o‘zini boshqaradi;
kundalik hayotida o‘z-o‘zining xavfsizligini ta‘minlaydi;
 mantiqiy fikrlashni rivojlantiradigan o‘yinlar orqali intellektini rivojlantiradi;
turli asbob-uskunalardan foydalanishda xavfsizlik texnikasi qoidalari va sanitariya-gigiena talablariga rioya qiladi;
jismoniy sifatlarni mustaqil ravishda rivojlantiradi;
sog‘lom turmush tarziga rioya qiladi;
shikastlanishning oldini olish qoidalariga amal qiladi;
favqulodda vaziyatlar chog‘ida o‘zini muqobil boshqara oladi, zarurat bo‘lganda o‘ziga va o‘zgalarga birinchi yordam ko‘rsata oladi.

Amaliy faoliyatni rivojlantirish kompetensiyasi

turli chizma, sxemalarni o‘qiydi, tuzadi va kundalik hayotida qo‘llaydi;
amaliy ishlarni mantiqiy ketma-ketlikda to‘g‘ri bajaradi;
o‘z imkoniyatlarini to‘g‘ri baholab, faoliyatini oqilona rejalashtiradi;
muammoni yechimini topishda mavjud resurslardan samarali foydalanadi;
faoliyatining barqarorligi va o‘zining farovonligini ta‘minlay oladi;
faoliyatini tanqidiy baholaydi, uni yaxshilash uchun o‘z ustida ishlaydi;
o‘z faoliyatini texnik va texnologik taraqqiyot o‘zgarishlariga moslashtira oladi;



jamoada hamkorlikda ishlaydi;
kasb turi va faoliyati yo'nalishini ongli hamda mustaqil ravishda tanlaydi;
amaliy ko'nikmalarini o'zi va jamiyatni barqaror rivojlantirishga safarbar qila oladi.

AMALIY FANLAR ORQALI O'QUVCHILARDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH BO'YICHA TAVSIYALAR

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Bunga ko'ra, amaliy o'quv predmetlari bloki-modulini o'qitish jarayonida o'quvchilarda quyidagi tayanch kompetensiyalar shakllantirilib boriladi.

Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalar bilan birgalikda tayanch kompetensiyalar shakllantirilishi belgilab berilgan. Tabiiy va iqtisodiy fanlar bloki yo'nalishidagi fanlari orqali o'quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish ular o'zlashtirgan bilimlari asosida egallagan ko'nikma va malakalarini turli vaziyatlarda qo'llay olishga qaratilishi maqsadga muvofiq.

Jumladan, **kommunikativ kompetensiyalarni** shakllantirishda davlat tili, horijiy tillarni o'zlashtirishda mustaqil, ijodiy fikrlash, amaliy mashg'ulotlarni o'zaro bajarishda, ijodiy loyiha ishlarini bajarish malakalarini shakllantirishda, yozma va og'zaki ravon bayon etish malakalarini shakllantirishda amaliy fanlarga oid atamalarni to'g'ri talafuz qilish, izohlab berish hamda erkin muloqot qilishga o'rgatish zarur.

Fanlarni o'qitishda **axborot bilan ishlash kompetensiyasini** samarali rivojlantirish imkoniyatlarini kengaytiruvchi zamonaviy axborot-telekommunikatsiya vositalaridan muntazam foydalanish zarur. Bunda o'quvchilarni fanga oid axborotlarni turli manbalardan izlash, tahlil qilish va axborot havfsizligiga rioya qilgan holda axborot vositalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirishda mobil qurilma (telefon, planshet va boshqa gadjetlar) lardan foydalanish tavsiya etiladi.

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasini shakllantirishda umuminsoniy fazilatlariga ega bo'lish, Vatanni sevish, huquqiy, iqtisodiy bilimlarga ega bo'lish, yangiliklarga intilish va o'zlashtirgan nazariy bilimlari asosida mustaqil qaror qabul qilishga, jamiyatda ro'y berayotgan progressiv va innovatsion o'zgarishlardan xabardor bo'lish hamda ulardan kundalik hayotda foydalana olishga o'rgatish zarur.

Ijtimoiy-emotsional va fuqarolik kompetensiyasini shakllantirishda fuqarolik burch, ijtimoiy va siyosiy rivojlanish, favqulodda vaziyatlar, ekologik muammolar haqida bilimlarga ega bo'lish hamda badiiy va san'at asarlarini tushunish hamda ularni asrashda tashkilotchilik xislatlarini rivojlantirishdan iborat.



“CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK” FANINI O‘QITISH KONSEPSIYASI

I. UMUMIY QOIDALAR

“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanini o‘qitish Konsepsiyasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli Farmoni asosida qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Halq ta‘limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi”da belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 23 fevraldagi “Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash Konsepsiyasi to‘g‘risida”gi 140-sonli Qarorlari asosida o‘quvchi yoshlarni tarbiyalash;

“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanini Davlat ta‘lim standarti talablarini ta‘lim sifati va kadrlar tayyorlashga qo‘yiladigan xalqaro talablarga muvofiqligini ta‘minlash;

“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanini dastur va darsliklarning mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek o‘qitish metodikasini takomillashtirish, ta‘lim-tarbiya jarayonini tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish;

“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” darslarida zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish va ulardan samarali foydalanish;

Ta‘lim muassasalarida darslardan tashqari harbiy-vatanparvarlik ruhidagi to‘garaklarni joriy etish;

O‘quv yili davomida “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanidan olgan nazariy-amaliy bilimlarini harbiy xizmatda qo‘llay bilish;

Fan bo‘yicha davlat ta‘lim standartlarida ko‘zda tutilgan kompetensiyalarga asoslangan baholash mezonlarini joriy etish;

II. “CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK” TA‘LIMINI AMALDAGI HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR

So‘nggi yillarda Xalq ta‘limi tizimidagi yangiliklardan biri bu umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining **10-11**-sinflaridagi o‘quvchilarni o‘qishini davom etayotganligidir. O‘quvchi yoshlarimizda o‘z Vatanga, Prezidentiga sodiq bo‘lgan, intellektual salohiyatli, sog‘lom va jismonan baquvvat avlodni Vatan himoyasi uchun har tomonlama toblangan o‘g‘lonlarimizni o‘zlarida mardlik va jasurlik fazilatlarini shakllantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir.

O‘zbekiston Respublikasining barcha ta‘lim muassasalari uchun majburiy fan sifatida Davlat ta‘lim standartlari talablarida berilgan tayanch ta‘lim mazmuni bajarish, o‘quv dasturiga zamon talablaridan kelib chiqib, fanning falsafiy va metodologik jihatdan yangilanishini, ta‘lim mazmunini va o‘qitish uslubiga nisbatan takomillashtirilgan, samarali boshqaruv usullarini ishlab chiqishni taqozo etadi.



Fanni o'rganishda o'quvchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olib, hamda "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani bo'yicha vujudga kelgan **quyidagi muammolarni** hal qilganimizdagina ta'lim sifatini oshirish mumkin:

milliylashtirilgan xalqaro va DTS, yangi pedagogik texnologiyalar talablariga javob beradigan puxta va mukammal fan nizomi va dasturini ishlab chiqish;

yangi fan dasturi asosida, barcha talablarga mos keladigan va o'quvchi yoshlarni intellektual qobiliyatlarini hisobga olgan holda, eski darslik kitoblaridan tubdan farq qiladigan yangi darslik kitob yaratish;

"Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanini o'qitishda har bir mavzular kesimida zamonaviy pedagogik texnologiyalarini qo'llash metodikasining ishlab chiqish;

umumta'lim fanlari bo'yicha fanlararo bog'lanish va amaliy yondashuvni hisobga olish;

pedagog-kadrlarning sifati bugungi kun talablariga mos kelmasligi, ularni o'qitishni va malakasini oshirishni tubdan qayta ko'rib chiqish va zamon talabiga mos kadrlarni tayyorlash;

"Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanidan ta'lim muassasalariga zaxiradagi ofitserlar yoki oliy o'quv yurtlarining maxsus harbiy ta'lim fakultetlarini bitirgan pedagog va harbiy sohada tajribasi bo'lgan, hamda yoshlar bilan ishlashda ko'nikma va malakaga ega bo'lgan fidoyi shaxslarni jalb ettirish, dars berishlariga va faoliyat yuritishlariga imkon yaratib berish lozim.

III. "CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK" FANINING KONSEPSIYASINI ASOSIY MAQSADI VA RIVOJLANISHINING USTUVOR YO'NALISHLARI

O'quvchilarga ta'lim berishda harbiy qismlarning jangovar o'quv-faoliyatida bajariladigan mashqlarni qo'shinlarning jangovar o'quv faoliyatlariga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o'rgatishlarini nazarda tutish lozim. Yoshlarga Vatan himoyasi yo'lida o'zining konstitutsiyaviy huquq va burchlarini chuqur anglatish, kindik qoni to'kilgan, avlod-ajdodlarining xoki-poyi qo'yilgan yurtini har qanday qurolli tajovuzdan himoya qilishdek muqaddas burchini a'lo darajada ado etishlariga zamin yaratish uchun boshlang'ich harbiy ta'lim berish kerak. Harbiy kasbga bo'lgan e'tiqodlarini va qiziqishlarini orttirib, Qurolli Kuchlardagi qurol-aslaha va harbiy texnikaning taktik va texnik tavsiflarini, harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyati bilan yaqindan tanishtirish kerak.

"Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanining maqsadi:

Vatanga bo'lgan mehr tuyg'ularini yanada oshirish, ularning nostandart vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qila olishi, fikrlash va dunyoqarashlarini kengaytirish;



ajdodlarimiz tarixi va madaniyati, milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish hissi va ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish;

o'quvchi yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va ularning qalbiga, ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish;

ta'lim sifatini rivojlanib borishining shakllantirish;

darzlarni to'liq davlat ta'lim standartlari talablarini bajarishlariga erishish;

o'qituvchi va o'quvchilarning harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyasini shakllantirish va milliy armiyamizning qudratini oshirish;

zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnika namunalarini qisqa muddatlarda o'zlashtirib olishga tayyor bo'lishi;

favqulodda vaziyatlarda o'zini va boshqalarni himoya qilish, davlatimizning ma'naviy va moddiy ne'matlarini saqlash yo'lida tashabbus ko'rsata oladigan jamiyatimizning fidoyi va vatanparvarlarini tayyorlash;

o'quvchi yoshlarning ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetini shakllantirish;

o'quvchilarni harbiy soxa bo'yicha nazariy-amaliy bilim va ko'nikmalarini oshirib, Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishga tayyorlash.

o'quvchi yoshlarimizni hozirgi zamon talablari, ta'lim sohasidagi jahon andozalari va milliy rivojlanish manfaatlariga mos qilib tarbiyalashdan iborat.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining vazifalari:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Mudofaa doktrinasi, "Mudofaa to'g'risida"gi, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunlarini, Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini safarbarlik chaqiruv rezervida harbiy xizmatni o'tashni tashkillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarorini asosiy talablarini, mohiyatini o'rgatish;

harbiy-vatanparvarlik ruhida, harbiy soha bilan aloqador bo'lgan davlat xizmati turlarida faollik ko'rsatish, tinch va harbiy sharoitda harbiy burchga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirish;

milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining asosiy vazifalarini, harbiy xizmatning ahamiyatini, harbiy qasamyodni va O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari talablarini anglatish;



favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, zaruriyat tug'ilganda o'ziga hamda yon atrofida qilargalarga birinchi tibbiy va boshqa zaruriy amaliy yordam ko'rsatish ko'nikmalarini o'rgatish;

qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo'lish tuyg'usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo'lgan ishonchni kuchaytirish;

yosh avlodimizda qat'iy hayotiy pozitsiya va Vatanimiz taqdiri uchun yuksak mas'uliyat tuyg'usini shakllantirish, harbiy ta'lim va vatanparvarlik tarbiyasi bo'yicha o'ziga xos noyob va yaxlit tizim yaratish;

yoshlarni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirish;

harbiy burchga va Prezidentiga sadoqatli bo'lish, ularda o'z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas'uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirish;

internet tarmog'idan foydalangan holda dars jarayoniga innovatsion va axborot texnologiyalarini joriy etishni o'rganish;

yosh avlodning ekologik madaniyatini, milliy boyliklarga nisbatan ehtiyotkorlik va tejamkorlik munosabatini o'stirish;

yoshlarni milliy g'oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanligini chuqur singdirish, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirishdan iboratdir.

IV. "CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK" O'QUV FANINING TUZILISHI VA MAZMUNI

Umumiy o'rta ta'lim tizimida "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanini tuzilishi quyidagi bo'limlarning ketma-ketligidan iborat:

Kirish: O'zbekiston Respublikasida "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fanining tarixiy zaruriyati. O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar. "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani, o'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosi.

1. "Harbiy-vatanparvarlik" bo'limi;

Mavzular: Harbiy-Vatanparvarlik tushunchasining mazmun mohiyati. O'quvchi yoshlarni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash muhim masala. O'zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari. Harbiy xizmatning huquqiy asoslari.

2. "Harbiy san'at tarixi" bo'limi;

Mavzular: Harbiy san'at tarixining shakllanishi. Milliy tarixiy qahramonlarimizning vatanparvarligi. Buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberding hayoti va harbiy mahorati haqida .



3. “Taktik tayyorgarlik” bo‘limi;

Mavzular: Umumqo‘shin jangi asoslari. Axborot kurashlari va mafkuraviy himoya. Qurolli to‘qnashuvlar huquqi. Razvedka.

4. “Otish tayyorgarligi” bo‘limi;

Mavzular: M.T.Kalashnikov avtomati AK-74, stvol osti granatamyoti GP-25 va parchalanuvchi qo‘l granatalari RGD-5, F-1 larning vazifasi, jangovar xususiyati, umumiy tuzilishi va ishlash tamoyillari.

5. “O‘zb.Res.Q.K.Umumharbiy nizomlari” bo‘limi;

Mavzular: O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat Nizomi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom Nizomi. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf Nizomi.

6. “Jismoniy tayyorgarlik” bo‘limi;

Mavzu. Muskul kuchlarini rivolantiruvchi mashqlarni bajarish.

7. “Fuqaro muhofazasi” bo‘limi;

Mavzular: O‘zbekiston Respublikasida FM va FVV ning tashkil etilishi. Respublika hududida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar va undan ogoh etish. Aholini ko‘chirish (evakuatsiya) tadbirlari. Ommaviy qirg‘in qurollari va ulardan himoyalash. Shaxsiy himoya vositalari. Ularning vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanish

V. “CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK” FANING O‘QUV-METODIK TA‘MINOTINI RIVOJLANTIRISH

Umumiy o‘rta ta‘lim tizimida “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanining ilmiy metodik ta‘minotini rivojlantirish bo‘yicha quyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

ilg‘or xorijiy tajribalar, xalqaro standartlar va milliy an‘analar uyg‘unligida “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani bo‘yicha milliy dastur ishlab chiqish;

tayanch o‘quv rejaga muvofiq “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanining sinflar va mavzular bo‘yicha hajmi, mazmuni, o‘rganish ketma-ketligi va shakllantiriladigan kompetensiyalari asosida o‘quv dasturlarini ishlab chiqish;

“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani bo‘yicha umumiy o‘rta ta‘lim muassasalari bitiruvchilariga qo‘yiladigan malaka talablarini ishlab chiqish;

“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanining mazmuni, o‘ziga xos xususiyatlari, malaka talablari va shakllantiriladigan kompetensiyalardan kelib chiqqan holda baholash tizimini ishlab chiqish;

o‘quvchilarda vatanparvarlik ruhi va milliy g‘urur hissini shakllantirishga qaratilganligi;



O'quv-metodik majmualarni ishlab chiqishga quyidagicha talablar qo'yiladi:

a) didaktik talablar:

o'quvchi tomonidan o'quv materiallarining to'liq o'zlashtirilishini ta'minlash;

mavzular axborot berishga emas, balki o'quv fanining mazmun-mohiyatini tushuntirish maqsadlariga xizmat qilishi;

o'quvchilarni Vatanga muhabbat, milliy iftixor, yosh avlodning madaniyatini, milliy boylklarga nisbatan ehtiyotkorlik va tejamkorlik munosabatini o'stirishi;

ilmiy dunyoqarashni shakllantirish, vatanparvarlik va millatlararo totuvlik talablariga javob berishi, aniq dalillarga asoslangan materiallardan tarkib topishi;

rasmlar ko'rinishidagi ilustrasiyalar xaritalari, jadvallar, diagrammalar va fotosuratlar bilan bezatilgan bo'lishi;

b) ilmiy-metodik talablar:

fan va texnikaning so'nggi yutuqlarini o'zida aks ettirishi, o'quv fani mavzularining mazmunan yaxlitligi ta'minlangan bo'lishi;

o'quv fani mavzulari o'zbek adabiy tili qoidalariga to'liq rioya qilgan holda oddiy va sodda, tushunarli va ravon tilda bayon qilinishi;

milliy g'oya va O'zbekiston xalqining mentalitetiga zid bo'lmagan tegishli ilustrasiyalar bilan boyitilishi;

savollar va amaliy mashg'ulot topshiriqlari aniq ifodalangan bo'lishi;

o'quvchilarni fikrlashga, yozishga, tasvirlashga, tahlil qilishga, bajarishga, amaliy topshiriqlarni bajarishda pedagogik texnologiyalarning turli metod va usullaridan foydalanish nazarda tutilgan bo'lishi;

v) pedagogik-psixologik talablar:

o'quvchilarni ro'xiy jixatdan har tomonlama shakllantirish;

o'quv fani mavzularining o'quvchi yoshi va psixofiziologik xususiyatlariga mos holda berilishi, ma'lum faktlar, tushunchalar, qoidalar va fanlararo bog'liqlikni hisobga olgan holda tushunarli bayon qilinishi;

g) estetik talablar:

Imkon darajasida yorqin, rangli, qiziqarli va chiroyli bo'lishi;

Matnlar o'quvchiga ma'lum ijobiy hissiy ta'sirlarni o'tkazishi va o'quv faniga qiziqish uyg'otishi;

Bo'lim, bob, paragraf va mavzular matnlarining turli shakl va ranglar bilan ajratilishi, mutanosibligi ta'minlanishi;

Rasm va xaritalar badiiy estetik talablarga javob berishi, aniq va tiniq ifodalanishi lozim.

d) gigiyenik talablar:

Matn va ilustrasiyalar sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga mos bo'lishi;



Harflarning kattaligi va qog'ozning sifati (og'irligi, qalinligi, oqligi va shaffoligi) me'yoriy hujjatlarda belgilangan talablarga mos bo'lishi lozim.

VI. “CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK” FANINING MODDIY-TEXNIK TA‘MINOTINI RIVOJLANTIRISH

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv material bazani yaratish ya'ni

- 1.“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” xonasi,
- 2.Qurol saqlash xonasi,
- 3.Qurolni tozalash stoli,
- 4.Saf maydoni,
- 5.To'siqlar maydoni,
- 6.Vzvod bo'yicha sutkalik naryadni o'rganish joyi,
- 7.Taktik maydon,
- 8.Jasorat burchagi,
- 9.Jangovar muzey,
- 10.Tibbiyot xonasi,
- 11.Fuqaro muxofazasi xonasi.
- 12.O'q otish maydonchasi (Tir.)
- 13.Sport maydonchasi.

Harbiy ta'lim xonasini yangi dastur asosida (plakatlar) bilan jixozlash;
Dasturga (tabelga) asosan (maketlarga) ko'rgazmali qurollarga ega bo'lish;

O'quv-uslubiy materiallar, kompyuter, interaktiv doska, va o'quv ko'rgazmali qurollarning elektron resurslar planshet va multimedia resurslari, internet, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlashni ta'minlash, ularning o'z vaqtida yangilab borish choralarini ko'rish;

VII. “CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK” TA‘LIMI JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA ZAMONAVIY USULLARNI JORIY ETISH ORQALI INNOVATSION INFRATUZILMASINI SHAKLLANTIRISH

“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani bo'yicha elektron kitoblarni mobil uskunalarga yuklab va ko'chirib olish maqsadida QR-kod yordamida sinflar kesimida o'quv-metodik majmualar (innovatsion darslik, o'qituvchilar uchun metodik qo'llanma, darsliklarning multimediali ilovalari) haqidagi axborotlarni joylashtirish tizimini yaratish;

O'kuvchilarni ko'shimcha qiziqarli yangiliklardan matn, audio, video shakllarida xabardor kilib turish, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida masofaviy ta'lim dasturlarini tashkil etish;

Masofadan turib foydalanish imkonini beruvchi elektron kutubxona tizimiga “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani bo'yicha ishlab chiqilgan o'quv-metodik majmualarni, elektron ta'lim rusurslarini joylashtirish hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;



“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanidan o‘qituvchilar uchun amaliy topshiriqlarni bajarishga mo‘ljallangan uslubiy qo‘llanmalar, elektron darslik va elektron videonamoyishlar to‘plamini yangi dastur asosida takomillashtirish;

“Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani bo‘yicha harbiy-sport musobaqalarda ishtirok etish va layoqatli o‘quvchilar ishtirokini ta‘minlash.

VIII. KONSEPSIYANI AMALGA OSHIRISHDAN KUTILAYOTGAN NATIJALAR

1. Ta‘lim sifati kafolatining rivojlanib borishining yana bir omili paydo bo‘ladi;

2. O‘qituvchi darslarni to‘liq yangi DTS talablari asosida tashkil etadi va standart talablari bajariladi;

3. Mahoratli o‘qituvchilarning dars mashg‘ulotlariga qiziqish oshadi, o‘quvchilarning davomati ko‘tariladi;

4. O‘qituvchi va o‘quvchilarning harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyasi shakllanadi va milliy armiyamizning qudratiga ishonchi oshadi;

5. O‘quvchi yoshlarni milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalash va ularning qalbiga, ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekani chuqur singdiriladi;

6. Ajdodlarimiz tarixi va madaniyati, milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish hissi va ularga munosib bo‘lish tuyg‘usi shakllanadi;

7. O‘quvchilarni ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immuniteti shakllanadi;

8. O‘quvchilar harbiy soxa bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarga ega bo‘lib, Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishga tayyor bo‘ladilar.

9. Talablariga mos keladigan topshiriqlar bilan ishlashga mo‘ljallangan amaliy mashg‘ulotlar hamda topshiriqlarni mustaqil bajarishga va ijodiy kreativ fikrlashni o‘rgatadi.

10. “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanini o‘qitishda maktab bitiruvchilarida harbiy sohaga bo‘lgan qiziqishi uyg‘onib, kelgusida vatan himoyachisi ofitser bo‘lishdek maqsad uyg‘onadi.



CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANI BO'YICHA UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARI BITIRUVCHILARIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

ESTETIK MADANIYAT VA IJODKORLIK KOMPETENSIYASI

Harbiycha odob-axloq, shaxsiy va jamoaviy gigiena qoidalariga qat'iy amal qiladi;

Umumharbiy nizom talablariga amal qiladi;

aloqa tarmoqlaridan foydalanganda muomala madaniyatiga amal qiladi;

Mudofaa doktrinasi va "Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmatni o'tash to'g'risi"dagi qonunlarning mazmun mohiyatini anglaydi

Vatan himoyasi yo'lida o'zining konstitutsiyaviy huquq va burchlarini chuqur anglaydi;

Avlod-ajdodlarining xoki-poyi qo'yilgan yurtini har qanday qurolli tajovuzdan himoya qilishdek muqaddas burchini ado etishga o'z hissasini qo'shadi;

Harbiy qasamyod qabul qilishda vatanga bo'lgan sadoqatini namoyon qiladi.

O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH VA ASRASH KOMPETENSIYASI

Tanani chiniqtirish, sog'lomlashtirish hamda uni tashqi ta'sirlardan himoya qila oladi;

Favqulodda ogoh etuvchi signallar berilganda to'g'ri va tartibli harakatlana oladi;

Aholini va moddiy boyliklarni yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlar oqibatlaridan muhofaza qilish jarayonida amalga oshirilayotgan umumdavlat tizimining tuzilishga rioya qila oladi;

Zararlangan hududlarda favqulodda holatlarni bartaraf eta oladi;

Favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanadi;

Favqulodda vaziyatlar chog'ida o'ziga va jarohatlanganlarga birinchi tibbiy va boshqa zaruriy yordamni ko'rsata oladi;

O'zining energetik quvvati bo'yicha sutkalik ratsional me'yoriy taqsimlanish tartibiga amal qila oladi;

Bakteriologik va kasallik tarqatuvchi mikroblardan himoyalaniish vositalaridan to'g'ri foydalana oladi;

Ommaviy qirg'in qurollardan himoyalaniishda shaxsiy himoya vositalarini qo'llay oladi.

AMALIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASI

Buyruq berish, buyruqni bajarish tartibi, bo'linma (vzvod) bo'yicha posbon harakatlarini bajaradi;



Saf (buyruqlar, saflanish, yurish, qatorlarga bo'linish) mashqlarini kundalik hayotida qo'llay oladi;

Umumrivojlantiruvchi mashqlar komplektini bajara oladi;

Hujum va mudofaa jangida harakatlanish tartibini bajaradi;

Qo'l jangi usullaridan to'g'ri foydalana oladi;

Qisqa, o'rta va uzoq masofalarga yugurish texnikasini qo'llay oladi;

Joyda xaritasiz mo'ljal olish va azimut bo'yicha harakatlanish usullaridan foydalana oladi;

To'siqlar yo'lagidagi to'siqlar majmuasidan to'liq o'tishni biladi;

Harbiy qurol-aslahalardan samarali foydalanadi;

Jismoniy mashqlarni ketma-ketlikda bajaradi o'ziga belgilangan yuklamalarni to'g'ri taqsimlay oladi;

Mashqlarni bajarish jarayonida harakatlanish tartibi va usullarini to'liq o'zlashtira oladi;

Favqulodda holat e'lon qilinganida, yong'in chiqqanida shaxsiy tarkibda harakatlana oladi;

Kuch mashqlari majmuasini tuza oladi va bajaradi;

Umumjismoniy tayyorgarlik mashqlarini amaldagi me'yorlariga amal qilgan holda bajaradi;

Labirint yo'laklaridan yugurib o'ta oladi;

Kasb turini ongli va mustaqil ravishda tanlay oladi;

Aholini ko'chirish (evakuatsiya) vaqtida tartib qoidalariga amal qiladi.



UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIGA CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK FANIDAN QO'YILADIGAN TALABLAR (10-11-SINFLAR)

Kodi	10-SINF
	ESTETIK MADANIYAT VA IJODKORLIK KOMPETENSIYASI
	Vatanga, o'z xalqiga va Prezidentiga sadoqat, yuksak vatanparvarlik fazilatlarini nomoyon qila oladi
	buyuk ajdodlarimizning urush olib borish taktikasi va strategiyasi tarixini biladi
	harbiy san'atning rivojlanish bosqichlaridan foydalana oladi
	Vatan ozodligi yo'lida jasorat ko'rsatgan buyuk ajdodlarimiz haqida ma'lumotga ega
	buyuk tariximiz, milliy urf odatlar, an'ana va qadriyatlarimizni qadrlaydi
	harbiy san'at tarixi haqida tushunchaga ega
	Jaloliddin Manguberdi, Amur Temur va Zahiriddin Bobur kabi buyuk sarkardalar hayoti va ijodini biladi
	"Temur tuzuklari", "Boburnoma" kabi o'quv qo'llanmalardan mustaqil foydalana oladi
	tashqi omillarga qarshi turish uchun organizmni chiniqtirib boradi
	o'rganuvchilarning yuqori ahloqiy sifatleri va irodasini (ishonchlilik, g'alabaga bo'lgan hoxish, qat'iylik va boshqa) oshirish haqida ma'lumotga ega.
	sog'lom fikr va jismoniy chiniqish sifatlarini rivolantirishni biladi
	O'Z-O'ZINI RIVOJLANTIRISH VA ASRASH KOMPETENSIYASI
	harbiy xizmatni o'tash tartibini biladi
	axborot kurashlarida xavfsizlikni ta'minlay oladi
	qurollanishi, harbiy texnikasini biladi
	umumqo'shin jangi turlari, taktik tayyorgarliklrini biladi
	o't ochishda xavfsizlik qoidalariga amal qiladi
	joyda xaritasiz mo'ljal olish tartibini biladi
	razvedka olib borishda xavfsiz harakatlana oladi
	kundalik hayotida tartib intizomga amal qiladi
	mashg'ulot paytida xavfsizlikni ta'minlash usullarini qo'llay oladi
	buyumlar bilan mashq bajarishda jarohat olmaslikka yo'naltirilgan xavfsizlik qoidalariga amal qiladi
	chaqqonlik, kuch, tezlik va chidamlilik sifatlarini ushlab turish hamda bajarish me'yorlarini biladi
	AMALIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASI
	saf nizomlarining asosiy mazmunini biladi
	umumharbiy nizomlari talablarini to'g'ri va aniq bajaradi
	sutkalik naryadda o'z burchini bajara oladi
	saf elementlaridan amalda qo'llay oladi
	harbiy jinoyatlar va javobagrlik turlarini biladi
	vzvod bo'yicha posbon majburiyatini bajaradi.
	harbiy burchga sodiqlik bilan xizmat qila oladi
	kuzatuv natijalari to'g'risida axborot bera oladi
	joyda yo'nalishlarni aniqlash usullarini biladi
	qo'l granatalarini turli holatlardan uloqtira oladi.



	safda harakatlanish. “Qadam bos”, “Rostlan”, “Yugur”, “Joyda qadam bos” komandalarini bajaradi.
	harakatda burilishlar. “O’ng-ga”, “Chap-ga”, “Ortga” “Ortga qadam bos”, komandalarini bajaradi
	otish bo’yicha zamonaviy elektron trenajer (SKATT) moslamalaridan foydalana oladi
	to’siqlar orasidan o’ta oladi
	uzoq masofalarga yugura oladi
	11-SINF
	ESTETIK MADANIYAT VA IJODKORLIK KOMPETENSIYASI
	Milliy qahramonlarimizning vatan himoyasi uchun qo’shgan hissasiga oid ma’lumotlarga ega
	Vatan himoyasi uchun mas’uliyatni his qiladi
	Buyuk tariximiz haqida ma’lumotga ega
	Urf odatlar, an’ana va qadriyatlarimizga sodiqlik bilan amal qila oladi
	Jaloliddin Manguberding hayoti va ijodi bilan tanish
	Amur Temurdek buyuk sarkardalar tarixi bo’yicha ma’lumotga ega
	Amir Temurning jangu-jadallari va matonatini biladi
	Harbiy qasmyod tarixi haqida tushunchaga ega
	Safda guruh tarkibida harakatlenganda sheriklariga nisbatan do’stona munosabatda bo’ladi
	Safda turish, yurish, saf buyruqlarini bajarishda madaniyatli bo’la oladi
	O’Z-O’ZINI RIVOJLANTIRISH VA ASRASH KOMPETENSIYASI
	Muddatli harbiy xizmat va safarbarlik chaqiruv rezervida harbiy xizmatni o’tash tartibiga rioya qila oladi
	Vatanni himoya qilishda o’z burchini ado eta oladi
	joyda xaritasiz mo’ljall olish va azimut bo’yicha harakatlanish tartibi va usullariga amal qiladi
	hujumga tayyorgarlik ko’rish oldi xavfsizlikka rioya qiladi
	portlovchi va portlamaydigan to’siqlardan o’tishda xavfsizlik qoidasiga amal qila oladi
	shaxsiy himoya vositalarini qo’llashni biladi
	otish mashg’ulotlarida xavfsizlik choralarini ko’ra oladi
	qo’l granatlarini turli holatlardan uloqtirish texnikasini biladi
	xavfsizlik choralariga qat’iy rioya etish uchun mashg’ulot boshida qurol, o’quv qo’l granatalari va o’q-dorilarni ko’rikdan o’tkazish kerakligini biladi
	qurol bilan qad rostlab turishda xavfsizlikni ta’minlay oladi
	harbiy dorixonasining ish faoliyatida xavfsizlik va sanitariya qoidalariga rioya qiladi
	shikastlanganda bog’lam turlaridan to’g’ri foydalana oladi
	o’zini-o’zi asrash, jangga tayyorlanish, harakatlanish) mashq qilish usul va uslublardan foydalana oladi
	“Startga”, “Diqqat”, “Marsh” komandalarini xavfsiz bajara oladi
	alohida va guruh bilan yagona to’siqlar yo’lagidan o’tishni qoidalariga amal qiladi
	AMALIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH KOMPETENSIYASI
	o’q otish uchun joy tanlay oladi
	yotib otish uchun mo’ljallangan okopni qazishni va jihozlashni biladi
	hujumga tayyorgarlik ko’rishdan hujumga o’ta oladi
	dushman mudofaasiga ataka qila oladi



	azimut bo'yicha harakatlanadi.
	razvedka yoki taktik tayyorgarlik bo'yicha me'yorlarni bajaradi
	qo'l granatalarni qo'llay oladi
	tanklarga qarshi minalarni o'rnata oladi
	guruh tarkibida harakatlana oladi
	joyda va harakatdagi nishonlarga o'q otishda nishon va mo'ljallash nuqtasini to'g'ri tanlay oladi
	safdagi o'z o'rniga tez va aniq borib tura oladi
	safni yoyish va yig'ish uslubidan foydalana oladi
	qurol bilan qad rostlab turish; "Avtomat ko'krakka", "Tasmaga", "Tasmalar bo'shatilsin, tortilsin", "Qurol orqa-ga", kabi buyruqlarni bajara oladi
	qurolsiz harakatlar va saf usullarini muntazam mustaqil bajara oladi
	qon ketganda, suyak singanda birinchi tibbiy yordam ko'rsata oladi
	organizmga kislorod tanqisligiga, olon zaharli hasharotlar chaqqanda baxtsiz hodisalarga olib keluvchi sabablarni aniqlay oladi
	qiz bolalar 1000 metrga yugura oladi
	o'g'il bolalar 3000 metrga yugura oladi
	alohida to'siqlardan o'ta oladi
	brusda mashqlar bajara oladi
	arqonga tirmashib chiqishni biladi



TUSHUNTIRISH XATI

Majburiy umumiy oʻrta taʼlimning davlat taʼlim standarti, taʼlim yakunida oʻquvchilar egallashi lozim boʻlgan bilim, koʻnikma va kompetensiyalarning minimal darajasini belgilab beradi.

Har bir sinf yakunida oʻquvchilar egallashi lozim boʻlgan bilim, koʻnikma va kompetensiyalar “chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik” fani boʻyicha ishlab chiqilgan oʻquv dasturida oʻz aksini topadi. Davlat taʼlim standartlari oʻquvchi va talabalarning “chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik” fani boʻyicha bilim va tayyorgarlik darajalarini belgilab beradi, oʻquv reja va dasturlar, darsliklar, qoʻllanmalarni ishlab chiqishda asos boʻlib xizmat qiladi. “Chaqiruvga qadar boshlangʻich tayyorgarlik” fani boʻyicha davlat taʼlim standartini ishlab chiqishda quyidagi meʼyoriy va qonun hujjatlari asos qilib olinadi:

- Oʻzbekiston respublikasi konstitutsiyasi;
- BMTning bolalar huquqlari boʻyicha konvensiyasi;
- Oʻzbekiston respublikasining 29.08.1997 yildagi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” va “taʼlim toʻgʻrisida”gi qonuni;
- Oʻzbekiston respublikasining 12.12.2002 yildagi “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat toʻgʻrisida” gi qonuni;
- Oʻzbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 23.02.2018 yildagi “yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi toʻgʻrisida”gi 140-sonli qarori;
- Oʻzbekiston respublikasi vazirlar mahkamasining 16.08.1999 yildagi 390-sonli “umumiy oʻrta taʼlim davlat standartlarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori va 16.10.2000 yildagi 400-sonli “oʻrta maxsus taʼlim davlat standartlarini tasdiqlash toʻgʻrisida”gi qarori;
- Oʻzdst1.1:1992.oʻzbekiston respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. davlat standartlarini ishlab chiqish, kelishish, tasdiqlash va davlat roʻyxatidan oʻtkazish tartibi;
- Oʻzdst1.9:1995.oʻzbekiston respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. tarmoq standartlarini ishlab chiqish, kelishib olish, tasdiqlash va roʻyxatga olish tartibi;
- Oʻzdst1.0:1998.oʻzbekiston respublikasi standartlashtirish davlat tizimi. asosiy qoidalar;
- Oʻzdst1157:2008.hujjatlarni unifikatsiyalashtirish tizimi. tashkiliy-farmoyish hujjatlar tizimi. hujjatlarni rasmiylashtirishga boʻlgan talablar.



UMUMIY QOIDALAR

O'quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalasida, "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani jismonan va ma'nan sog'lom barkamol avlodni tarbiyalashda, yoshlarni ongi va qalbiga Ona-Vatanimizni ko'z qorachig'idek asrash, himoya qilish sharafligi va muqaddas burch ekanini chuqur singdirib borish orqali, Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir, O'zbekistonning haqiqiy vatanparvar fuqarolarini tarbiyalash, fanning asosiy mazmunini tashkil etadi.

"Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi hamda "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq tashkil etiladi va olib boriladi.

Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik (keyingi o'rinlarda ChQBT deb ataladi), shu jumladan fuqaro muhofazasi va tibbiy bilim asoslari bo'yicha tayyorgarlik o'quv dasturidagi **majburiy fan bo'lib**, umumiy o'rta ta'lim maktablari va akademik litseylarda CHQBT fani rahbarlari va o'qituvchilari tomonidan yakuniy bosqich (10-11-sinf) o'quvchilariga o'qitiladi.

Chaqiruvga qadar tayyorgarlik darajasi past bo'lgan chaqiriluvchilar harbiy xizmatga chaqirilishdan oldin qo'shimcha ravishda bunday tayyorgarlikdan Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar hokimliklari tomonidan tashkil etiladigan mudofaa-sport sog'lomlashtirish lagerlarida (keyingi o'rinlarda MSSL deb ataladi) o'tishlari mumkin.

CHQBT FANINING MAQSADI VA VAZIFALARI

1. CHQBT fanining **maqsadi** - Vatan himoyasi yo'lida o'zining konstitutsiyaviy huquq va burchlarini chuqur anglatish, kindik qoni to'kilgan, avlod – ajdodlarining xoki-poyi qo'yilgan yurtini har qanday qurolli tajovuzdan himoya qilishdek muqaddas burchini a'lo darajada ado etishlariga zamin yaratish uchun boshlang'ich harbiy ta'lim berish;

-harbiy kasbga bo'lgan e'tiqodlarini va qiziqishlarini orttirish;

-favqulodda vaziyatlarda o'zini va boshqalarni himoya qilish, davlatimizning ma'naviy va moddiy ne'matlarini saqlash yo'lida oqilona tashabbus ko'rsata oladigan jamiyatimizning fidoyi va vatanparvar a'zolarini tayyorlash;

-Vatanga bo'lgan sadoqat, mehr tuyg'ularini yanada oshirish, ularning nosatrdart vaziyatlarda tezkor va to'g'ri qaror qabul qila olishi, fikrlash va dunyoqarashini kengaytirishdan iborat.

2. CHQBT fanining **vazifalari**- O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, Mudofaa doktrinasi, "Mudofaa to'g'risida"gi, "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi Qonunlarini, Vazirlar



Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarini safarbarlik chaqiruv rezervida harbiy xizmatni o‘tashni tashkillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorini asosiy talablarini, mohiyatini o‘rgatish;

-harbiy-vatanparvarlik ruhida, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas‘uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirish;

-milliy g‘oya va Vatanga sadoqat ruhida tarbiyalashda qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish;

-O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining asosiy vazifalarini, harbiy xizmatning ahamiyatini, harbiy qasamyodni va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Umumharbiy nizomlari talablarini anglatish;

-Favqulodda vaziyatlarda harakatlanish, zaruriyat tug‘ilganda o‘ziga hamda yon atrofida qilarga birinchi tibbiy va boshqa zaruriy amaliy yordam ko‘rsatish ko‘nikmalarini o‘rgatish;

-Qurolli Kuchlardagi qurol-aslaha va harbiy texnikaning taktik va texnik tavsiflarini, harbiy xizmatchilarning xizmat faoliyati bilan yaqindan tanishtirish;

-zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnika namunalari qisqa muddatlarda o‘zlashtirib olishga shay bo‘lishi;

-harbiy ta‘lim berishda ularga harbiy qismlarning jangovar o‘quv-faoliyatida bajariladigan mashq, harakat va amallarni harbiy qismlardagi qo‘shinlarning jangovar o‘quv faoliyatlariga mumkin qadar yaqinlashtirilgan holda o‘rgatishlari nazarda tutiladi.

CHQBT FANINI TASHKIL ETISH HAMDA UNI AMALGA OSHIRISH BO‘YICHA MAS‘UL ORGANLARINING ASOSIY VAZIFALARI

Chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining umumiy rahbarligi ostida o‘tkaziladi. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar, tumanlar, shaharlar hokimliklari chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlash ishlarini moliyalashtirilishi hamda moddiy-texnika jihatidan ta‘minlanishini amalga oshiradilar, o‘quv-moddiy bazasini barpo etadilar, bunday tayyorgarlikning tashkil etilishi uchun javobgar bo‘ladilar.

Chaqiriluvchilarni harbiy xizmatga tayyorlashning tashkil etilishini, amalga oshirilishini va natijalarini nazorat qilib borish, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlikni uslubiy jihatdan ta‘minlash O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, shuningdek ta‘lim muassasalari bo‘lgan vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar tomonidan amalga oshiriladi.



O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi:

-CHQBT tadbirlarining rejalashtirilishiga va o'z vaqtida bajarilishiga rahbarlik qiladi, CHQBT ishlarini muvofiqlashtiradi;

-Markaz tomonidan CHQBT dasturini tayyorlash jarayonida ishtirok etadi;

-ta'lim muassasalarini harbiy mavzulardagi o'quv-uslubiy filmlar hamda sohaga oid normativ-huquqiy hujjatlar (Umumharbiy nizomlar, qonunchilik hujjatlari), qo'llanmalar, tavsiyalar va ko'rsatmalar bilan ta'minlaydi;

-ta'lim muassasalarini harbiy qism va oliy harbiy ta'lim muassasalariga biriktirish to'g'risida tegishli buyruqlar chiqaradi;

-CHQBT fani rahbarlari va o'qituvchilari ishtirokidagi o'quv yig'inlarini tashkillashtiradi va o'tkazadi;

-ta'lim muassasalari o'quvchilarining o'quv-dala mashg'ulotlarini o'tkazish jarayoniga amaliy yordam ko'rsatadi;

-ta'lim muassasalari o'quvchilarini muddatli harbiy xizmatchi va kursantlarning kundalik faoliyati, ularning maishiy ta'minoti, shuningdek qurol-aslaha, harbiy texnika namunalari bilan tanishtirib borish maqsadida ta'lim muassasalari bilan harbiy qism va oliy harbiy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlikni tashkil etadi va muvofiqlashtiradi;

-CHQBTga oid qurol-yarog' va o'q-dorilar hisobini yuritishga, ularni saqlash va topshirishga oid yo'riqnomalarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, shuningdek sohaga doir tavsiyalar hamda ko'rsatmalar tayyorlaydi;

-har yili CHQBT va harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy ishlarning holatini o'rganadi va doimiy ravishda nazorat qilib boradi;

-CHQBT fani o'qituvchilarini saralash, tayyorlash va qayta tayyorlash masalalarida ta'lim muassasalariga amaliy yordam ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi:

-tibbiy bilim asoslari fani o'qituvchilarini saralash, tayyorlash va qayta tayyorlash masalalarida ta'lim muassasalariga amaliy yordam ko'rsatadi;

-ta'lim muassasalarini tibbiy bilim asoslari bo'yicha zarur ko'rgazmali vositalar, birinchi tibbiy yordamga oid o'quv-uslubiy filmlar bilan ta'minlaydi;

-davolash-profilaktika muassasalarini tibbiyot yo'nalishidagi ta'lim muassasalari o'quvchilari bilan amaliy mashg'ulotlar olib boriladigan o'quv bazasi sifatida ta'lim muassasalariga biriktiradi;

-ta'lim muassasalarida tashkil etilgan tibbiyot xonalarini o'quv dasturida nazarda tutilgan tibbiy jihozlar va dori-darmonlar bilan Markazning hududiy boshqarmalari tomonidan ajratilgan mablag'lar hisobiga ta'minlab boradi.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi:

-ta'lim muassasalarida fuqaro muhofazasiga oid amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda soha mutaxassislari, shuningdek texnik vositalar bilan amaliy yordam ko'rsatilishini ta'minlaydi;

-Markaz tomonidan CHQBT dasturini tayyorlash jarayonida, shuningdek ta'lim muassasalarini fuqaro muhofazasiga oid o'quv hamda



uslubiy qo'llanmalar, ko'rgazmali vositalar bilan ta'minlash ishlarida ishtirok etadi;

-ta'lim muassasalari direktorlari, CHQBT fani rahbarlari va o'qituvchilarining O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining Aholi va rahbarlar tarkibini tayyorlash markazlarida qayta tayyorgarlikdan o'tishini va malaka oshirishini tashkillashtiradi;

-ta'lim muassasalari o'quvchilarida amaliy ko'nikmalarni hosil qilish maqsadida har yilgi «Fuqaro muhofazasi» kunlarini o'tkazishda amaliy yordam ko'rsatadi;

-fuqaro muhofazasiga, harbiy-vatanparvarlik va jismoniy tarbiyaga oid o'quv-moddiy bazani takomillashtirish ishlarida qatnashadi.

-ta'lim muassasalari o'quvchilarining jismoniy tayyorgarligiga oid o'quv-uslubiy qo'llanmalarni CHQBT ta'limi bilan uzviy bog'lagan holda tayyorlanishini tashkil qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi va Xalq ta'lim vazirligi:

-ta'lim muassasalarining CHQBT o'quv xonalarini jihozlar, darslik, o'quv-uslubiy qo'llanmalar va ko'rgazmali vositalar bilan ta'minlaydi, ularni doimiy ravishda takomillashtirib boradi;

-ta'lim muassasalari o'quvchilarining CHQBT, harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyasi va ularni harbiy xizmatga tayyorlash tadbirlarini sifatli tashkil etilishini ta'minlaydi;

-CHQBT dasturi, fanga oid darsliklar, tavsiyalar, o'quv-uslubiy qo'llanmalar, ko'rgazmali vositalar va o'quv filmlari bilan ta'minlaydi;

-ta'lim muassasalari ixtiyoriga berilgan o'quv qurol-yarog'lar, kichik kalibrli hamda pnevmatik miltiqlar, ularda qo'llaniladigan patronlar to'liq saqlanayotganligini nazorat qilib boradi;

-ta'lim muassasalari o'quvchilarida mardlik, chaqqonlik, kuchlilik va chidamlilik sifatlarini rivojlanishiga omil bo'ladigan jismoniy tarbiyaning CHQBT bilan bog'liqligini ta'minlaydi;

-CHQBTning yakuniy bosqichida ta'lim muassasalari o'quvchilari ishtirokida o'quv-dala mashg'ulotlarini tashkillashtiradi va o'tkazadi;

-CHQBT bo'yicha xorijiy mamlakatlarning ilg'or tajribalarini doimiy ravishda o'rganib boradi hamda ijobiy xususiyatlarini respublika ta'lim muassasalariga joriy etish choralari ko'radi;

-O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan hamkorlikda tibbiy bilim asoslari fani o'qituvchilarini tanlov asosida ishga qabul qiladi va qayta tayyorlash masalalarini hal etadi;

-O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi bilan hamkorlikda ta'lim muassasalarining CHQBT fani rahbari va o'qituvchisi lavozimiga tayinlanadigan nomzodlarni tanlaydi, ushbu fan o'qituvchilarining uslubiy va kasbiy tayyorgarligini tashkillashtiradi, ularni attestatsiyadan o'tkazadi;



-CHQBT bo'yicha namunali CHQBT fani rahbarlari va o'qituvchilarini Davlat mukofotlariga, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi va Markazning mukofotlariga tavsiya etadi.

CHQBT FANINI TASHKIL ETISH VA UNI AMALGA OSHIRISH

1. Ta'lim muassasalarida CHQBT fani uchun - **68 soat** ajratilgan bo'lib, mashg'ulotlar o'g'il va qiz bolalar bilan birgalikda o'tkaziladi. Mashg'ulotlar ta'limi muassasalarida o'quvchilarga oxirgi ikki yilida haftasiga bir soatdan o'qitiladi. Ta'lim muassasasi direktori, CHQBT fani rahbari va o'qituvchilarining asosli takliflarini o'rganib chiqqan holda, joriy dasturning bo'lim va umumiy ajratilgan vaqt limitidan **10%** dan oshib ketmagan holda, o'quv mashg'ulotlarining vaqti va mavzusiga tuzatish va o'zgartirishlar kiritish huquqiga ega. Dastur talablari asosida CHQBT rejasi butun o'quv yili uchun haftalarga taqsimlangan holda rejalashtiriladi. Bu reja dasturining to'liq bajarilishini va uning har bir bo'limini boshqa fanlar bilan uzviy hamkorlikda o'rganishni ta'minlashi shart.

O'quv yili boshida ta'lim muassasasi direktorining "CHQBT mashg'ulotlarini boshlash to'g'risida»gi hamda mashg'ulotlarni tashkiliy jihatdan sifatli uyushtirish va o'quvchilarga nazariy va amaliy jihatdan fanni yaxshi singdirish maqsadida, o'quv guruhlarga bo'linib, guruhlar o'quvchilar soniga ko'ra seksiyalar (ikkita o'g'il bolalardan iborat va bitta qizlardan iborat seksiya)ga bo'linib o'tiladi. Ta'lim muassasasi direktorining "Guruh va seksiya komandirlarini tayinlash to'g'risida»gi buyrug'iga muvofiq eng jismonan baquvvat, intizomli va ibratli o'quvchilar orasidan guruh va seksiya komandirlari tayinlanadi.

CHQBT fani rahbari, o'qituvchi va o'quvchilar bilan munosabatlar O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarning Umumharbiy nizomlari talablari asosida o'rnatilishi maqsadga muvofiq bo'ladi.

2. Harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy ishlar o'quvchilar qalbida Vatanga sodiqlik, yurt tarixiga va xalqimizning ezgu an'alariga hurmat bilan qarash tuyg'ularini shakllantirish, ularni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga so'zsiz amal qilish ruhida tarbiyalash, shuningdek ular o'rtasida yurt an'alarini targ'ib qilish, harbiy xizmatga hurmat bilan qarash, yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlar, harbiy qasamyod va umumqo'shin nizomlarida bayon etilgan talablar ijrosiga mas'uliyat bilan yondashish fazilatlarini, intizomlilik, jasurlik, tashabbuskorlik va Vatan himoyasiga shaylik sifatlarini tarbiyalash maqsadlarida tashkil etiladi va olib boriladi. Tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning CHQBT fani bilan uyg'unlashtirilib, ular tomonidan harbiy ishning sir-asrorlari, shu jumladan ommaviy qirg'in qurollari ta'siridan saqlanish vosita va usullari, tabiiy va texnogen tUSDagi favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan sharoitda amalga oshiriladigan xatti-harakatlar puxta o'zlashtiriladigan tarzda tashkil etiladi.



Harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy ishlarning turli shakl va usullari qo'llaniladi, jumladan, ma'ruza o'qish, seminar-treninglar, muayyan mavzuga bag'ishlangan savol-javob kechalari, bahs-munozaralar, viktorinalar, yakka va jamoaviy davra suhbatlari, harbiy qismlarga ekskursiyalar uyushtirishlar, urush va mehnat faxriylari, jangovar harakatlar ishtirokchilari va harbiy xizmatchilar bilan uchrashuvlar tarzida va boshqa shakllarda tashkil etiladi. Ular pirovard natijada jamiyatda sog'lom ijtimoiy-ma'naviy muhitni shakllantirishga xizmat qiladi. Tadbirlar yuksak tashkiliy va g'oyaviy saviyada, samarali, yuqori sifat bilan bajarilishiga qaratilgan choralar muntazam ravishda amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasalari bilan harbiy qismlar, oliy harbiy ta'lim muassasalari o'rtasida mustahkam aloqa o'rnatiladi, ta'lim muassasalari o'quvchilari orasida harbiy kasbni targ'ib etishga doir tashviqot ishlari faol olib boriladi.

Ta'lim muassasasi yuksak g'oya va dolzarb mavzularga boy, yurtimizda yuz bergan eng muhim siyosiy voqea va jarayonlar, harbiy-vatanparvarlik ruhidagi mavzu va fuqaro muhofazasi asoslari aks ettirilgan, shuningdek o'zbek xalqining yutuqlari, urush va jangovar harakatlar ishtirokchilari, jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik a'lochilari sifatida e'tirof etilgan harbiy xizmatchilar aks ettirilgan ko'rgazmali materiallar bilan jihozlanadi.

Ta'lim muassasalari o'quvchilarining o'quv mashg'ulotlari vaqtida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va mahoratlari to'garaklar, sportning harbiy-amaliy turlari bo'yicha seksiyalar va harbiy-sport musobaqalari davomida mustahkamlanadi.

3. Ta'lim muassasalarida CHQBT fani nazariy va amaliy mashg'ulotlari shaklida o'tkaziladi.

Nazariy mashg'ulotlar asosan ma'ruza yoki suhbat shaklida materiallar va ta'limning texnik vositalaridan foydalanilgan holda o'tkaziladi. Bu mashg'ulotlarda asosiy tushunchalar, ta'riflar hamda mavzuning asosiy qoidalari qarab chiqiladi. Adabiyotlar, Nizomlar talabi, ko'rsatmalar tahlil qilinadi. Maslahatlar, tavsiyalar beriladi, olgan bilimlarini boshqa mashg'ulotlarda hamda harbiy xizmatni o'tash davrida qanday qilib qo'llash mumkinligi tushuntiriladi.

Amaliyot mashg'ulotlari ta'lim muassasalarining belgilangan talablarga asosan jihozlangan o'quv maydonlari va joylarda o'quv qurollari, asboblari, snaryadlari, nishonlar va boshqa ko'chma o'quv jihozlaridan foydalangan holda o'tkaziladi.

Nazorat mashg'ulotlari dasturning bo'limlari yakunlangandan keyin CHQBT fani rahbari yoki o'qituvchilari tomonidan o'g'il va qiz bolalar bilan birga nazorat mashg'ulotlari ta'lim muassasalarida o'tkaziladi. Nazorat mashg'ulotlari yangi innavatsion pedagogik texnologiyalar asosida tuzilgan savol-javob, test, mustaqil ijodiy yondashish usullari va dasturning ilovada ko'rsatilgan me'yorlarini bajarish orqali olinadi.



4.Yakka tartibdagi baholash tizimi o'quvchilarning CHQBT fani bo'yicha egallagan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalari boshqa umumta'lim fanlari uchun belgilangan me'yoriy baholash tizimiga muvofiq baholanadi.

10-sinf o'quvchilarini baholashda, xar bir bo'lim bo'yicha olgan baholar yig'indisi ("Fuqaro muhofazasi" bo'limida nazorat mashg'uloti)dan kelib chiqib, chorak va yillik baholari aniqlanadi:

11-sinf o'quvchilarini baholashda, dasturdagi bo'limlar bo'yicha nazorat mashg'ulotlarida olgan baholari yig'indisidan kelib chiqib, chorak (semestr) va yillik baholari quyidagicha aniqlanadi:

-**"a'lo"** - agarda barcha bo'limlarning nazorat mashg'ulotlari 50 % dan ortig'i **"a'lo"** bahoga, qolganlari esa **"yaxshi"** bahoga baholangan bo'lsa;

-**"yaxshi"** - agarda barcha bo'limlarning nazorat mashg'ulotlari 50 % dan ortig'i **"a'lo"** va **"yaxshi"** baholarga, qolganlari esa **"qoniqarli"** bahoga baholangan bo'lsa;

-**"qoniqarli"** - agarda barcha bo'limlarning nazorat mashg'ulotlari 90% dan ortig'i **"qoniqarli"** baholarga va «qoniqarsiz» baho bittadan ko'p bo'lmasa;

-**"qoniqarsiz"** - agarda barcha bo'limlarning nazorat mashg'ulotlari bo'yicha ikkita va undan ko'p **"qoniqarsiz"** bahoga baholanga bo'lsa.

CHQBT fanidan o'quvchilarga yakuniy baho yillik baholari yig'indisiga asoslanib qo'yiladi va quyidagicha aniqlanadi:

•-**"a'lo"** - agarda DO'M uchun **"a'lo"** baho olgan bo'lsa, yillik bahosi **"yaxshi"** bahodan past bo'lmasa;

-**"yaxshi"** - agarda DO'M uchun **"yaxshi"** baho olgan bo'lsa, yillik bahosi **"qoniqarli"** bahodan past bo'lmasa;

-**"qoniqarli"** - agarda DO'M uchun «qoniqarli» baho olgan bo'lsa, yillik bahosi **"qoniqarli"** bahodan past bo'lmasa;

-**"qoniqarsiz"** - agarda DO'M va yillik bahosi **"qoniqarsiz"** baho bo'lsa.

CHQBT fani o'tilmagan yoki mazkur fan bo'yicha sinovdan o'tmagan yoxud yakuniy bahosi **"qoniqarsiz"** deb topilgan chaqiriq yoshidagi o'spirinlar bilan shahar yoki tuman hokimligining qarori bilan tuman, shahar mudofaa ishlar bo'limlarida tashkil qilingan MSSL da ushbu 68 soatlik dastur asosida CHQBT fani o'tiladi.

5.Har bir ta'lim muassasasida CHQBT dasturi va ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlangan haftalik reja asosida CHQBT rahbari va o'qituvchilari tomonidan bir o'quv yil uchun haftalik va taqvim mavzu-rejasi tuziladi. Taqvim mavzu-rejasi har yili Mudofaa vazirligining talablari asosida, qo'shinlarning va ta'lim muassasalarining CHQBT bo'yicha erishilgan ilg'or tajribalaridan, shuningdek, axborot metodik yordam xizmati ma'lumotlaridan kelib chiqib yangilanib turiladi.

Haftalik o'quv reja dasturda ko'rsatilgan mavzu va mashg'ulotlarni mantiqiy ketma-ketlik asosida to'g'ri o'tilishi uchun, ta'lim muassasasining o'quv moddiy-texnik bazasini hisobga olgan holda va bir yillik reja ichidan



haftalik o'tiladigan mashg'ulotlarni ajratib olib, jadval ko'rinishida ishlab chiqiladi

Taqvim mavzu-rejada quyidagilar aks etishi zarur:

-mavzu va mashg'ulotlarning nomlanishi (mavzularning mantiqiy ketma-ketligi);

-ta'lim shakli va usuli;

-ta'lim metodi;

-dars turi;

-boshqa fanlar bilan aloqadorligi;

-o'tish joyi va vaqti;

-ta'lim vositalari;

-mashg'ulot o'tiladigan sinf va sanasi;

-uyga vazifa;

-foydalanilgan adabiyotlar nomlari va boshqa uslubiy ko'rsatmalar.

6. Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan o'q otish mashqlari o'quvchilarning otish qoidalari va usullarini qay darajada o'zlashtirib olganligini tekshirish va ularni jangovar o'qlar bilan avtomatdan otish bo'yicha dastlabki mashqlarga tayyorlash maqsadida o'tkaziladi. Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish mashqlarini bajarish maxsus jihozlangan o'q otish joylari (tir)da, xavfsizlik qoidalariga rioya qilingan holda tashkil qilinadi. Otish xavfsizligi ta'minlanmagan o'q otish joylarida (tir) otish mashqlarini bajarish va otish mashqlariga rahbarlikni ChQBT rahbari yoki o'qituvchilar amalga oshiradi.

Kichik kalibrli (pnevmatik) miltiqdan otish mashqlariga otish qoidalarini mukammal o'rgangan, xavfsizlik qoidalariga rioya qiladigan, otish tartibini biladigan o'quvchilargina qo'yiladi. Qolgan o'quvchilar ushbu talablarga javob bera oladigan darajaga yetgandan so'ng darsdan tashqari tadbirlarda otish mashqlarini bajaradilar.

Har bir kichik kalibrli miltiqdan yoki avtomatdan otish mashqini bajargandan so'ng, guruh nishon oldiga olib kelinib otish natijalari ko'zdan kechiriladi.

Avtomatda jangovar o'qlardan otish mashqlari maxsus jihozlangan otish joylarida (tirlarda) yoki otish maydonlarida garnizon boshlig'i (harbiy qism boshlig'i) va xalq ta'limi organlarining xududiy boshqarmalari bilan kelishilgan holda tuman (shahar) Mudofaa ishlari bo'limlari rejalari asosida o'tkaziladi. Otishni tashkil qilish va amalga oshirish tartibi «Quruqlikdagi qo'shinlar otish qurollari, jangovar mashina va tanklardan otish kurs»larida (KSSO, BM va TSV-95) belgilangan.

Otish mashqlarni boshlashdan avval otish mashqlari rahbari o'quvchilarning xavfsizlik qoidalarini, avtomatning tuzilishi va qismlarini, bir joydan turib paydo bo'luvchi va haraktsiz nishonlarga o'q otish tartib qoidalari bo'yicha bilimlarini tekshiradi. Ushbu qoidalarni bilmagan o'quvchilar avtomatdan jangavor o'q bilan otish mashqlariga qo'yilmaydi.



Ta'lim muassasining rahbari o'quv qurol-aslahalarni ta'lim muassasalariga berish va ularni saqlash haqida maxsus buyruq yoki boshqa xujjat olmaguncha, uning tegishli vazirlik va tashkilotlardan ta'lim muassasasini maxsus tabelga muvofiq qurol-aslah, artilleriya va muhandislik vositalari bilan ta'minlanishini talab qilish huquqiga ega emas.

TA'LIM MUASSASALARINING MANSABDOR SHAXSLARINI MAJBURIYATLARI

Ta'lim muassasasi direktori: yoshlarning CHQBT va harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyasini puxta tashkillashtirilishi, sifatli o'tkazilishi, sohaga doir ijobiy natijalarga erishilishi, ta'lim muassasasi ixtiyoriga berilgan o'quv qurol-yarog'lari, kichik kalibrli va pnevmatik miltiqlar, ularda qo'llaniladigan patronlar to'liq saqlanishi uchun javob beradi. Ta'lim muassasasi direktori zimmasiga CHQBT sohasida quyidagi majburiyatlar yuklanadi:

1. O'quv-tarbiyaviy jarayonni o'z vaqtida rejalashtirilishi, tashkil etilishi hamda CHQBT dasturini to'liq va sifatli bajarilishini ta'minlash;

2. CHQBT fani uchun xona, ushbu tayyorgarlikning amaliy masalalarini o'tkazish uchun joy va maydonlar ajratish, shuningdek ushbu fanga oid o'quv-moddiy bazani Nizom hamda CHQBT dasturida belgilangan talablarga muvofiq muntazam ravishda takomillashtirib borish choralarini ko'rish;

3. Ta'lim muassasalarida "Shon-sharaf burchagi" yoki "Jasorat muzeyi"ni tashkil etish va ularning jihozlanishini qat'iy nazoratga olish;

4. Ta'lim muassasasi ixtiyoriga berilgan o'quv qurol-yarog'lar (kichik kalibrli va pnevmatik miltiqlar, ularda qo'llaniladigan patronlar) hisobini tegishli yo'riqnoma talablariga muvofiq yuritilishi, saqlanishi, ta'mirlanishi va hisobdan chiqarilishini tashkillashtirish, shuningdek har uch oyda bir marta ularning mavjudligi, hisobi to'g'ri yuritilayotgani, talab darajasida saqlanayotgani va texnik holatini shaxsan tekshirib borish;

5. CHQBT fani rahbari va o'qituvchisiga o'quv-uslubiy jihatdan yordam berish, ushbu fanning boshqa fanlar bilan uzviyligini, shuningdek to'garak ishlari tashkil etilishi va olib borilishini ta'minlash;

6. CHQBT fani rahbari va o'qituvchisi tomonidan o'tkazilayotgan darslar va o'quvchilarning o'quv materiallarini o'zlashtirishi sifatini muntazam tekshirib borish, ular bilan olib borilayotgan CHQBT va harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy ishlarning holatini o'quv semestri davomida o'tkaziladigan pedagoglar kengashlarda (yig'ilish va majlislarda) muhokama etib borish;

7. Shaklan va mazmunan turli harbiy-sport musobaqalarini muntazam ravishda tashkil etish va o'tkazish;

8. CHQBT fani bo'yicha o'qishning boshlanishi va yakunlari, guruhlarni tuzish, guruh va seksiya komandirlarini tayinlash, kichik kalibrli va pnevmatik miltiqlardan o't otish mashg'ulotlarini tashkillashtirish va



o'tkazish, bir oylik harbiy-vatanparvarlik oyligini tashkil etish, oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish uchun targ'ibot-tashviqot va nomzodlarni saralab olish ishlarini tashkillashtirish hamda o'tkazish, CHQBT bo'yicha eng yaxshi ta'lim muassasasi va eng yaxshi o'qituvchi ko'rik-tanlovlarini, shuningdek, uch kunlik o'quv-dala mashg'ulotlari hamda harbiy-sport musobaqalarining dastlabki bosqichini tashkil etish va o'tkazish, ChQBT, jismoniy tarbiya va tibbiy bilim asoslari fanlari metodikasini takomillashtirish komissiyasini tuzish bo'yicha buyruqlarni o'z vaqtida chiqarish;

9. CHQBT, jismoniy tarbiya va tibbiy bilim asoslari fanlari metodikasini takomillashtirish komissiyasi faoliyatini tashkillashtirish va ushbu faoliyatni nazorat qilib borish;

10. Tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limi va boshqa hisobot beriladigan organlarga CHQBT va harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy ishlar to'g'risida hisobot berish.

CHQBT fani rahbari: (ta'lim muassasasida CHQBT rahbari lavozimi bo'lmagan taqdirda, CHQBT rahbarining vazifasi CHQBT o'qituvchisiga yuklanadi) ta'lim muassasasi direktoriga bo'ysunadi, ta'lim muassasasi o'quvchilarining CHQBT, shuningdek ta'lim muassasasi ixtiyoriga berilgan o'quv qurol-yarog'lar (kichik kalibrli va pnevmatik miltiqlar, ularda qo'llaniladigan patronlar) hisobini to'liq yuritilishi, saqlanishi va topshirilishi, qurol-yarog' va o'q-dori qo'llanilgan tarzda o'tkaziladigan mashg'ulotlar davomida amal qilinishi lozim bo'lgan xavfsizlik choralariga qat'iy rioya etilishi uchun bevosita javob beradi.

CHQBT fani rahbari va o'qituvchisi zimmasiga quyidagi majburiyatlar yuklanadi:

1. O'quv va darsdan tashqari soatlar davomida ChQBT mashg'ulotlarini shaxsan tashkillashtirish va olib borish, harbiy ish asoslarini o'zlashtirish to'garaklari hamda harbiy-amaliy sport turlari bo'yicha seksiyalar faoliyatiga rahbarlik qilish;

2. Ma'naviy-ma'rifiy, harbiy va pedagogik bilimlarni muntazam oshirib borish, uslubiy ko'nikmalarni takomillashtirish;

3. Harbiy va fuqaro muhofazasi xonalariga rahbarlik qilish, shuningdek qurol saqlash va otish tiri xonalarini nazorat qilish;

4. Ta'lim muassasasi ixtiyoriga berilgan o'quv qurol-yarog'lar (kichik kalibrli va pnevmatik miltiqlar, ularda qo'llaniladigan patronlar) hisobini tegishli yo'riqnoma talablariga muvofiq yuritish, saqlash, har oyda bir marta ularning mavjudligi va texnik holatini shaxsan tekshirib borish, ta'mirlanishi va hisobdan chiqarilishini o'z vaqtida, belgilangan tartibda tashkillashtirish;

5. Ta'lim muassasalari o'quvchilarining harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy ishlarini ta'lim muassasasi pedagoglar jamoasi bilan hamkorlikda olib borish;



6. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchisi bilan hamkorlikda ta'lim muassasasi miqyosida shaklan va mazmunan turli harbiy-sport musobaqalarini muntazam tashkil etish hamda o'tkazish;

7. Merganlik, harbiy-amaliy sport turlari va fuqaro muhofazasi bo'yicha tuman (shahar) miqyosida o'tkaziladigan musobaqalarni tashkillashtirish ishlarida ishtirok etish;

8. O'quvchilarning CHQBT va harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy ishlarning sifatini oshirish maqsadida ta'lim muassasasiga biriktirilgan harbiy qism, oliy harbiy ta'lim muassasasi va jamoat tashkilotlari yordamidan doimiy ravishda foydalanish, oliy harbiy ta'lim muassasalariga o'qishga kirish istagini bildirgan o'quvchilarni tanlash va tayyorlash ishlarida mudofaa ishlari bo'limiga yaqindan yordam berish, guruh rahbarlari bilan hamkorlikda chaqiruv uchastkasida qayd etilishi lozim bo'lgan o'smirlarga tavsifnomalar tayyorlash.

9. CHQBT fani rahbari va o'qituvchisi darsdan tashqari vaqtda ta'lim muassasalari o'quvchilarining harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyasini tashkillashtirish borasida o'quvchilar tarbiyasi bo'yicha mas'ul (direktorning ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari), jismoniy tarbiya o'qituvchisi, sinf va guruh rahbarlari va ta'lim muassasasining pedagoglar jamoasi bilan hamkorlikda ish olib boradi.

10. CHQBT fani rahbari va o'qituvchisining kundalik ish faoliyati darslar jadvali, darsdan tashqari vaqtda amalga oshiriladigan asosiy tadbirlar rejasi va ta'lim muassasasi direktori tomonidan tasdiqlanadigan shaxsiy ish rejasi asosida olib boriladi.

11. CHQBT fani rahbari va o'qituvchisi ta'lim muassasasida joriy etilgan navbatchilik xizmatiga jalb etilishi mumkin. Uning zimmasiga mazkur Nizomda nazarda tutilmagan boshqa majburiyatlar yuklanmaydi.

CHQBT FANI RAHBARLARI VA O'QITUVCHILARINI TANLASH VA TAYINLASH

CHQBT fani rahbari va o'qituvchisi lavozimiga tayinlanadigan nomzodlar ta'lim muassasasi tomonidan tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limi bilan hamkorlikda tanlanadi. Bunda nomzodning ma'lumoti, harbiy, jismoniy va pedagogik tayyorgarligining saviyasi, shuningdek tashkilotchilik qobiliyati hamda uslubiy ko'nikmalari puxta shakllanganligi hisobga olinadi.

CHQBT fani rahbari va o'qituvchisi lavozimiga oliy ta'lim muassasalarining "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishlarini tamomlagan, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari rezervidagi tajribali ofitserlar tayinlanadi.

CHQBT fani rahbari va o'qituvchisi lavozimiga yuqorida qayd etilgan talablar bo'yicha ishga olish imkoni bo'lmagan holatlarda, istisno tariqasida, pedagog mutaxassisligi bo'yicha oliy ma'lumotga ega bo'lgan zaxiradagi (rezervdagi) oddiy askar yoki serjant harbiy unvonidagi shaxslar tayinlanishi mumkin.



Tibbiy bilim asoslari fani o'qituvchisi lavozimiga tayinlanadigan nomzodlar ta'lim muassasasi tomonidan, tuman (shahar) sog'liqni saqlash organlari bilan hamkorlikda tajribali tibbiyot xodimlari yoki fuqaro muhofazasi yo'nalishidagi tibbiy hamshira dasturi bo'yicha tahsil olgan o'qituvchilar orasidan tanlanadi va tayinlanadi.

CHQBT FANI RAHBARI VA O'QITUVCHISINING HUQUQ HAMDA IMTIYOZLARI

Ta'lim muassasasi CHQBT fani rahbari va o'qituvchisining pedagogik ish stajiga O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safidagi, shuningdek O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi va Davlat xavfsizlik xizmati organlarida o'tagan haqiqiy harbiy xizmat muddati qo'shiladi. CHQBT fani rahbari CHQBT xonasining mudiri hisoblanadi va amalda joriy etilgan qo'shimcha haq to'lash tizimi qo'llaniladi. CHQBT fani rahbari va o'qituvchisiga respublika ta'lim muassasalari boshqa fan o'qituvchilari uchun nazarda tutilgan barcha imtiyozlar va ijtimoiy kafolatlar tatbiq etiladi.

Oliy ta'lim muassasalarining "Chaqiriqqacha harbiy ta'lim" yo'nalishlarini tamomlab ofitser unvoniga ega bo'lgan, haqiqiy harbiy xizmatdan rezerv yoki iste'foga bo'shatilib, ta'lim muassasalari CHQBT fani rahbari va o'qituvchisi lavozimiga tayinlangan rezervdagi va iste'fodagi ofitserlarga, shuningdek CHQBT fani rahbari va o'qituvchilariga Umumharbiy nizomlarda belgilangan tartibda va amalda bo'lgan harbiy kiyim kiyib yurish huquqi beriladi.

CHQBT FANI VA HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDAGI TARBIVAVIY ISHLARNING NAZORATI

CHQBT va harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy ishlarni nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Jismoniy tarbiya va sport vazirligi, Markaz hamda Qoraqalpog'iston Respublika Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan hamkorlikda amalga oshiriladi.

Ta'lim muassasasida tekshirish ishlari Mudofaa vazirligi tomonidan yilda bir marta, ikki kundan kam bo'lmagan muddatda amalga oshiriladi. Tekshiruv davomida ta'lim-tarbiya jarayonining to'g'ri tashkil etilganligi, CHQBT dasturining to'liq bajarilayotganligi, o'quv materiallarining ta'lim muassasasi o'quvchilari tomonidan o'zlashtirilishi sifati, ta'lim muassasasi o'quvchilarining ushbu fandagi ishtiroki, CHQBT fani rahbari va o'qituvchisining uslubiy tayyorgarlik saviyasi, mashg'ulotlarning o'tkazilish sifati, harbiy-vatanparvarlik ruhidagi tarbiyaviy hamda jismoniy tayyorgarlik ishlarning, shuningdek o'quv-moddiy bazaning holati o'rganib chiqiladi.

Tekshirish ishlari yakuni bo'yicha besh nusxada dalolatnoma tuziladi. Dalolatnomaning bittadan nusxasi tegishli ravishda tuman (shahar) hokimligiga, ta'lim muassasasiga, mudofaa ishlari boshqarmasiga, mudofaa ishlari boshqarmasi orqali Markazning hududiy boshqarmasiga



yuboriladi, bir nusxasi esa tuman (shahar) mudofaa ishlari bo'limida saqlanadi.

DASTURNING UMUMIY O'QUV SOATLAR TAQSIMOTI

№	Bo'limlarning nomlanishi	O'quv soatning umumiy miqdori	10-sinf			11-sinf		
			Umumiy	Nazariy	Amaliy	Umumiy	Nazariy	Amaliy
1	Kirish	1	1	1	-	-	-	-
2	Harbiy-vatanparvarlik	8	4	4	-	4	4	-
3	Harbiy san'at tarixi	6	3	3	-	3	3	-
4	Taktik tayyorgarlik	12	5	5	-	7	4	3
5	Otish tayyorgarligi	11	3	3	-	8	2	6
6	O'zb.Res.Q.K. Umumharbiy nizomlari	15	10	4	6	5	3	2
7	Jismoniy tayyorgarlik	4	-	-	-	4	-	4
8	Fuqaro muhofazasi	8	8	5	3	-	-	-
9	Tibbiy bilim asoslari	3	-	-	-	3	2	1
	Jami soatlar:	68	34	25	9	34	18	16

Izoh: Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quv yili davomida 34 o'quv hafta bo'lib, 10-11-sinflarga haftasiga 1 soatdan "Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik" fani dars jadvaliga qo'yiladi. Mashg'ulotlar 45 minutdan o'tiladi. Nazorat mashg'ulotlari har bir bo'lim yakunida olinadi.



X SINIF

KIRISH

1-Mavzu. “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanining maqsadi, vazifasi va dolzarbligi.

1-mashg‘ulot: Nazariy. O‘zbekiston Respublikasida “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fanining tarixiy zaruriyati. O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlarda olib borilayotgan islohotlar. “Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik” fani, o‘quvchilarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning asosi.

“HARBIY-VATANPARVARLIK” BO‘LIMI

№	Mavzularning nomlanishi	o‘quv soatlar miqdori	
		10-sinf	
		Nazariy	Amaliy
1	Harbiy-Vatanparvarlik tushunchasining mazmun mohiyati. O‘quvchi yoshlarni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash muhim masala.	1	-
2	O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari.	1	-
3	Harbiy xizmatning huquqiy asoslari.	2	-
Jami soat:		4	-

2-Mavzu. Harbiy-Vatanparvarlik tushunchasining mazmun mohiyati. O‘quvchi yoshlarni Vatanparvarlik ruxida tarbiyalash muhim masala.

1-mashg‘ulot: Nazariy. Ona Vatanga, xalqiga sadoqat va fidoyilik tuyg‘ularini shakllantirish. Harbiy- Vatanparvarlik ruxidagi tarbiyaning oilada va jamiyatdagi o‘rni.

3-Mavzu. O‘zbekiston Respublikasining Qurolli Kuchlari.

1-mashg‘ulot: Nazariy. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tashkil etilish tarixi, vazifasi, tarkibi va tuzilishi. Mudofaa sanoati. MV, IIV, DHX, MG, FVV, DBQning asosiy vazifalari. Harbiy okruglar. Mudofaa vazirligiga qarashli qo‘shinlar. Qo‘shin turlari va xillari.

4-Mavzu. Harbiy xizmatning huquqiy asoslari.

1-mashg‘ulot: Nazariy. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining Vatan himoyasi to‘g‘risida. (Konstitutsiyaning 3-17-52-57-moddalari, 93-moddaning 18-19-20-bandlari, 125-126-moddalariga qisqacha sharh). O‘zbekiston Respublikasining Mudofaa Doktrinasi va “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonuni. (Mudofaa Doktrinasi va “Mudofaa to‘g‘risida”gi Qonunga sharh)

2-mashg‘ulot: Nazariy. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risidagi” Qonuni. (Umumiy qoidalari, harbiy majburiyat va harbiy xizmat turlari, harbiy unvonlar va lavozimlar, harbiy



xizmatchilarning harbiy kiyim-kechak va farqlovchi nishonlari). O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi" Qonuni. (Fuqarolarni chaqiruv uchastkalarida qayd etish, harbiy xizmatga chaqirilish va kirish, harbiy xizmatni o'tash, zaxira va rezervga chiqish)

"HARBIY SAN'AT TARIXI" BO'LIMI

№	Mavzularning nomlanishi	o'quv soatlar miqdori	
		10-sinf	
		Nazariy	Amaliy
1	Harbiy san'at tarixining shakllanishi.	1	-
2	Milliy tarixiy qahramonlarimizning vatanparvarligi.	1	-
3	Buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberding hayoti va harbiy maharoti haqida.	1	-
Jami soat:		3	-

5-Mavzu. Harbiy san'at tarixining shakllanishi.

1-mashg'ulot: Nazariy. Eramizdan avvalgi davrda harbiy san'at tarixi. Dunyo miqyosida harbiy soxaning rivojlanishiga hissa qo'shgan sarkardalar. Buyuk sarkardalarning harbiy san'at tarixidagi roli. Harbiy taktika va strategiya bo'yicha qilingan ishlari.

6-Mavzu. Milliy tarixiy qahramonlarimizning vatanparvarligi.

1-mashg'ulot: Nazariy. Milliy tarixiy qahramonlarimiz Shiroq, Tumaris, Spitamen va Temur Malikning vatanparvarliklari.

7-Mavzu. Buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberding hayoti va harbiy mahorati haqida .

1-mashg'ulot: Nazariy. Jaloliddin Manguberding vatan himoyasi uchun ko'rsatgan jasoratlari. Yoshlar ongiga yengilmas sarkarda Jaloliddin Manguberding harbiy merosini chuqur singdirish va ularda milliy rux, g'urur va iftixor tuyg'ularini shakllantirish.

"TAKTIK TAYYORGALIK" BO'LIMI

№	Mavzularning nomlanishi	o'quv soatlar miqdori	
		10-sinf	
		Nazariy	Amaliy
1	Umumqo'shin jang asoslari.	2	-
2	Axborot kurashlari va mafkuraviy himoya.	1	-
3	Qurolli to'qnashuvlar huquqi.	1	-
4	Razvedka.	1	-
Jami soat:		5	-



8-Mavzu. Umumqo'shin jangi asoslari.

1-mashg'ulot: Nazariy. Jang haqida tushuncha. Zamonoviy umumqo'shin jangining tavsifi, maqsadi va turlari. O't ochish va manyovr turlari. Jangovar ta'minot. Askarning jang oldi va jangdagi majburiyati. Askarning qurollanishi va dala anjomlar to'plami (ekipirovka).

2-mashg'ulot: Nazariy. Motoo'qchi seksiyasi va guruhning tarkibi, qurollanishi, jangovar texnikasi va imkoniyatlari. Motoo'qchi seksiyasi va guruhning harakatlanish taktikasi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining asosiy qurol-yaroqlar va texnikalarining taktik-texnik tavsifi. Zamonaviy armiyalarning asosiy qurol-yaroqlar va texnikalarining taktik-texnik tavsifi.

9-Mavzu. Axborot kurashlari va mafkuraviy himoya.

1-mashg'ulot: Nazariy. Axborot kurashlarining maqsadi va vazifasi. Axborot xuruji va mafkuraviy himoya.

10-Mavzu. Qurolli to'qnashuvlar huquqi.

1-mashg'ulot: Nazariy. QTHning manbalari va vujudga kelishi. Halqaro insonparvarlik huquqini mazmuni. QTH ning asosiy tamoyillari va tushunchalari. Harbiy operatsiyalarni rejalashtirish va unga qo'yilgan asosiy talablar. QTH ni buzganlik uchun milliy va halqaro darajada javobgarlik. QTH da ko'zda tutilgan farqlovchi timsol va belgilar Qizil Hoch va Qizil Yarim Oy halqaro harakati.

11-Mavzu. Razvedka.

1-mashg'ulot: Nazariy. Razvedkaning maqsadi va vazifasi. Kuzatuvchi askarning vazifasi. Kuzatish joyining jihozlanishi. Kuzatish sektoridagi nishonlarni aniqlash va kuzatuv natijalari haqida axborot berish. Razvedka dozorining (ilg'ori) vazifasi. Harakatlanish tartibi. Cho'l, tog', aholi manzilgohlari, daryo, jarliklar va balandliklarni ko'zdan kechirish tartibi. Aloqa va signal vositalari yordamida xabar berish.

“OTISH TAYYORGARLIGI” BO'LIMI

№	Mavzularning nomlanishi	o'quv soatlar miqdori	
		10-sinf	
		Nazariy	Amaliy
1	M.T.Kalashnikov avtomati AK-74, stvol osti granatamyoti GP-25 va parchalanuvchi qo'l granatalari RGD-5, F-1 larning vazifasi tuzilishi, ishlash tamoillari va jangovar xususiyati.	3	-
Jami soat:		3	-



12-Mavzu. M.T.Kalashnikov avtomati AK-74 ning vazifasi, jangovar xususiyati, umumiy tuzilishi va ishlash tamoyillari.

1-mashg'ulot: Nazariy. Qurolsoz ixtirochi olimlar va ixtirochi M.T.Kalashnikovning hayoti va ijodi. Qurol-yaroq, o'q-dori va portlovchi moddalar bilan ishlaganda xavfsizlik choralari.

2-mashg'ulot: Nazariy. M.T.Kalashnikov avtomati AK-74 qurolining vazifasi, jangovar xususiyati, umumiy tuzilishi va ishlash tamoyillari.

3-mashg'ulot: Nazariy. M.T.Kalashnikov avtomati AK-74 qurolini o'q otish vaqtida avtomatda sodir bo'lishi mumkin bo'lgan nosozliklar va ularni bartaraf etish. Kalashnikov avtomati AK-74 qurolining qo'shimcha ashyolari. Qurolni tozalash, moylash va uni saqlash tartibi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARINING "UMUMHARBIY NIZOMLARI" BO'LIMI

№	Mavzularning nomlanishi	o'quv soatlar miqdori	
		10-sinf	
		Nazariy	Amaliy
1	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat Nizomi.	2	-
2	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom Nizomi.	1	-
3	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf Nizomi. Nazorat mashg'uloti.	1	6
Jami soat:		4	6

13-Mavzu. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat Nizomi.

1-mashg'ulot: Nazariy. Harbiy xizmatchining huquqlari, majburiyatlari va javobgarligi. Yakkaboshchilik. Komandirlar (boshliqlar) va bo'ysunuvchilar. Kattalar va kichiklar. Buyruq berish va uni bajarish tartibi, harbiycha salomlashuv. Harbiy xizmatchining hulqi va xushmuomaligi.

2-mashg'ulot: Nazariy. Seksiya komandiri va oddiy askar majburiyatlari, harbiy xizmatchining yotoqxonaga joylashishi, xonalarni tutishi, vaqtning taqsimlashinishi va kundalik tartib.

14-Mavzu. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Intizom Nizomi.

1-mashg'ulot: Nazariy. Umumiy qoidalar, oddiy askar va serjantlarga qo'llaniladigan rag'batlantirishlar, uni qo'llash tartibi. Umumiy qoidalar, oddiy askar va serjantlarga qo'llaniladigan intizomiy ta'zirlar, uni berish tartibi.



15-Mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Saf Nizomi.

1-mashg‘ulot: Nazariy. Umumiy qoidalari, komandir va harbiy xizmatchining safga turish oldidagi va safdagi majburiyatlari.

2-mashg‘ulot: Amaliy. Safda quolsiz va qurol bilan turish. Joyda turib burilish usullari, seksiya tarkibida bajarish.

3-mashg‘ulot: Amaliy. Yurish va harakat vaqtida burilish usullari, seksiya tarkibida bajarish.

4-mashg‘ulot: Amaliy. Joyda turganda va harakat vaqtida harbiycha salom berish usullari, seksiya tarkibida bajarish.

5-mashg‘ulot: Amaliy. Safdan chiqish va qaytish usullari, boshliqning oldiga borish va qaytish usullari.

6-7-mashg‘ulot: Amaliy. Seksiya tarkibida yurish va harakat vaktida burilish usullari.

“FUQARO MUHOFAZASI” BO‘LIMI

№	Mavzularning nomlanishi	o‘quv soatlar miqdori	
		10-sinf	
		Nazariy	Amaliy
1	O‘zbekiston Respublikasida FM va FVV ning tashkil etilishi. O‘zbekiston Respublikasi hududida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar va undan ogoh etish. Aholini ko‘chirish (evakuatsiya) tadbirlari.	1	1
2	Ommaviy qirg‘in qurollari va ulardan himoyalanih.	4	-
3	Shaxsiy himoya vositalari. Ularning vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanish. Nazorat mashg‘uloti.	-	2
Jami soat:		5	3

16-Mavzu. O‘zbekiston Respublikasida FM va FVV ning tashkil etilishi.

Respublika hududida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar va undan ogoh etish. Aholini ko‘chirish (evakuatsiya) tadbirlari.

1-mashg‘ulot: Nazariy. O‘zbekiston Respublikasida FM va FVV ning tashkil etilishi. Respublika hududida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan favqulodda vaziyatlar.

2-mashg‘ulot: Amaliy. Aholini favqulodda vaziyatlarlardan ogohlantirish. Ob‘ekt (ta‘lim muassasalarining) shaxsiy tarkibini **“DIQQAT, HAMMAGA!”** signali bo‘yicha harakati va o‘zini tutish qoidalari. Shahar aholisini ko‘chirish (evakuatsiya) tartibi.



17-Mavzu. Ommaviy qirg'in qurollari va ulardan himoyalanih.

1-mashg'ulot: Nazariy. Ommaviy qirg'in qurollarining turlari. Yadro qurolining xavfsizlikka ulkan tahdidi haqida. Yadro qurolidan xoli hudud tushunchasi hamda yadrosizlik tamoyillari. Yadroviy qurolning portlash turlari va qo'llash vositalari. Yadroviy zararlanish o'chog'i. Yadro portlashining zararlovchi omillari. Yadro qurolidan himoyalanih. Neytron va vodorod bombalari.

2-mashg'ulot: Nazariy. Kimyoviy qurol va uni qo'llash vositalari. Jangovar zaharlovchi moddalarning turlari. Kimyoviy binar quroli. Kimyoviy zaharlanish o'chog'i. Jangovar zaharlovchi moddalarning qo'llanganligini ko'rsatuvchi belgilar. Kimyoviy qurolning organizmga ta'siri va zaharlanish belgilari.

3-mashg'ulot: Nazariy. Bakteriologik (biologik) qurol. Uning qo'llanganligi belgilari. Asosiy bakteriologik (biologik) vositalarning qisqacha tavsifi. Bakteriologik zararlanish o'chog'i. Karantin va observatsiya xaqida tushuncha.

4-mashg'ulot: Nazariy. Zamonaviy oddiy qirg'in vositalari. Parchalanuvchi, sharikli, fugasli qurol-aslahalar. Portlaganda xajmi ortadigan bombalar. Yondiruvchi qurollar.

18-Mavzu. Shaxsiy himoya vositalari. Ularning vazifasi, tuzilishi va ulardan foydalanish.

1-mashg'ulot: Amaliy. Nafas olish a'zolarini himoya qiluvchi zamonaviy umumqo'shin va fuqaro gazniqoblari. Ularning vazifasi, tuzilishi hamda ulardan foydalanish tartibi. O'ziga va jarohatlangan odamga gazniqob kiydirish. Terini himoya qilish vositalaridan umumqo'shin himoya to'plami va yengil himoya kostyumlari (L-1). Umumqo'shin himoya to'plamini "Yoping'ich", "Plashch", "Kombinezon" usulida kiyish. O'ziga va jarohatlangan odamga umumqo'shin himoya to'plamini kiydirish.

2-mashg'ulot: Amaliy. Respiratorlar. Changga qarshi matoli niqob (CHQN-1), paxta-dokali bog'lagich hamda ularni tayyorlash va foydalanish. Himoya qilishning tibbiy vositalari. Shaxsiy doriqutisi (AI-2). Zaharlovchi kimyoviy moddalarga qarshi shaxsiy bog'lovchi paketdan (IPP-8, IPP-9) foydalanish.



XI SINF

“HARBIY-VATANPARVARLIK” BO‘LIMI

№	Mavzularning nomlanishi	o‘quv soatlar miqdori	
		11-sinf	
		Nazariy	Amaliy
1	O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi harbiy va milliy qadriyatlar.	2	-
2	Qurolli kuchlardagi oliy harbiy bilim yurtlari. Kichik mutaxassislarini tayyorlash markazi. Temurbeklar maktablari.	1	-
3	Harbiy xizmatchi va oila a‘zolariga beriladigan imtiyozlar. Nazorat mashg‘uloti.	1	-
Jami soat:		4	-

1-Mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlardagi harbiy va milliy qadriyatlar.

1-mashg‘ulot: Nazariy. Milliy armiyamizdagi jangavor an‘analar. O‘quvchi yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruxida va milliy qadriyatlarga sodiq qilib tarbiyalash. Harbiy qasamyod. Jangovar bayroq.

2-mashg‘ulot: Nazariy. Ikkinchi jaxon urushi yillarida O‘zbekistonlik jangchilarining ko‘rsatgan qahramonliklari haqida. Qurolli Kuchlarimizdagi bugungi kunning milliy Vatanparvar qahramonlari. Orden va medallar.

2-Mavzu. Qurolli kuchlardagi oliy harbiy bilim yurtlari. Kichik mutaxassislarini tayyorlash markazi. Temurbeklar maktablari.

1-mashg‘ulot: Nazariy. Oliy harbiy bilim yurtlari (MV, IIV, DHX, MG, DBQ, FVV)ning maqsad va vazifalari. Qurolli Kuchlar kichik mutaxassislarini tayyorlash markazi. O‘quvchilarni milliy rux va ota-bobolar merosiga sodiqlik ruxida tarbiyalash maqsadida Temurbeklar maktabining ochilishi va uning maqsad vazifalari.

3-Mavzu. Harbiy xizmatchi va oila a‘zolariga beriladigan imtiyozlar.

1-mashg‘ulot: Nazariy. Harbiy xizmatchilarga beriladigan imtiyozlar. Harbiy xizmatchilarning oila a‘zolariga beriladigan imtiyozlar.

“HARBIY SAN‘AT TARIXI” BO‘LIMI

№	Mavzularning nomlanishi	o‘quv soatlar miqdori	
		11-sinf	
		Nazariy	Amaliy
1	Amir Temurning harbiy salohiyati va harbiy sohaga qo‘shgan ulkan hissalar.	1	-
2	“Temur tuzuklari”ning harbiy soxadagi ahamiyati.	1	-



3	Zaxiriddin Muxammad Boburning harbiy sohaga qo'shgan hissalarini. Nazorat mashg'uloti.	1	-
Jami soat:		3	-

1-Mavzu. Amir Temurning harbiy salohiyati va harbiy sohaga qo'shgan ulkan hissalarini.

1-mashg'ulot: Nazariy. Amir Temurning harbiy salohiyati va harbiy sohaga qo'shgan hissalarini. Amir Temurning dunyo miqyosidagi e'tirofi haqida.

2-Mavzu. "Temur tuzuklari"ning harbiy soxadagi ahamiyati.

1-mashg'ulot: Nazariy. Ulug' Sohibqironning "Tuzuklari"ni mazmun mohiyatini teran anglash. Harbiy soxadagi muhim ahamiyati. "Temur tuzuklari"ning Uzbekiston Respublikasi umumharbiy nizomlari bilan (qiyosi) taqqoslanishi.

3-Mavzu. Zaxiriddin Muxammad Boburning harbiy sohaga qo'shgan hissalarini.

1-mashg'ulot: Nazariy. Zaxiriddin Muxammad Bobur - harbiy ilmining bilimdoni. Zaxiriddin Muxammad Boburning razvedka va artilleriya taraqqiyotiga qo'shgan ulkan hissalarini.

"TAKTIK TAYYORGARLIK" BO'LIMI

№	Mavzularning nomlanishi	o'quv soatlar miqdori	
		11-sinf	
		Nazariy	Amaliy
4	Askarning jangdagi harakati.	2	2
5	Muhandislik to'siqlari. Piyoda va tankka qarshi minalar.	1	-
6	Harbiy topografiya. Joylarda xaritasiz mo'ljal olish. Nazorat mashg'uloti.	1	1
Jami soat:		4	3

4-Mavzu. Askarning jangdagi harakati.

1-mashg'ulot: Nazariy. Mudofaa va mudofaadagi jang pozitsiyasi to'g'risida tushuncha. Askarning mudofaadagi harakati. O't ochish marrasini (pozitsiya) tanlash va o't ochish sektorini tozalash, mudofaaga moslashtirish va niqoblash. Dushman o't ochishni boshlaganda va OQQni (ommaviy qirg'in qurollari) qo'llaganda yoki xujumga o'tganda askarning xarakatlanish tartibi. Mudofaa marrasiga yetib kelgan (texnika va texnikasiz) dushmanni yo'q qilish tartibi. Xabar berish signallari bo'yicha xarakatlanish. (tunda va kunduzi xabar berish usullarini o'rgatish)

2-mashg'ulot: Nazariy. Hujum to'g'risida tushuncha. Askarning hujumdagi harakati. Hujumga tayyorlanish va hujumga o'tish tartibi. Hujumning yakunlovchi bosqichida tezkor xujumga (atakaga) o'tish tartibi.



Jang maydonidagi to'siqlarni yengib o'tish va xarakatlanish usullari. Motoo'qchi seksiyasining (pozitsiya) marrasi.

3-4-mashg'ulot: Amaliy. ZM (BTR), PJM (BMP), Tank uchun jihozlangan xandak (okop) namunalari, yopiq xandaklar va jihozlangan zovurlarni (transheya) ko'rsatish. Yotib, tizzalab va tik turgan xolatda qurollardan otish uchun xandak (okop)ni tayyorlash, jihozlash, niqoblashni ko'rsatish va bajarishni o'rgatish.

5-Mavzu. Muhandislik to'siqlari. Piyoda va tankka qarshi minalar.

1-mashg'ulot: Nazariy. Muhandislik to'siqlari va ularning turlari. (O'zb Res QKdagi zamonaviy portlaydigan, portlamaydigan va aralash to'siqlar) Piyoda va tankka qarshi minalar tavsifi, o'rnatish tartibi, ularni oshkor qiluvchi belgilar va minalashtirilgan maydonlaridan o'tish usullari. (O'zb Res QKdagi va zamonaviy minalar)

6-Mavzu. Harbiy topografiya. Joylarda xaritasiz mo'ljal olish.

1-mashg'ulot: Nazariy-amaliy. Harbiy topografiya va uning zaruriyati. Xarita bilan ishlash. Xarita masshtabi, masshtab kengligi, xaritaga shartli belgilarni qo'yish, kurvimetr va sirkul bilan ishlash.

2-mashg'ulot: Nazariy-amaliy. Mo'ljalga olishning usullari. (Kompas, soat, kuyosh) Maxalliy predmetlar yordamida dunyo (gorizont) (ufq) tomonlarini aniqlash. Magnit azimuti va uni aniqlash. Azimut bo'ylab harakatlanish.

“OTISH TAYYORGARLIGI” BO'LIMI

№	Mavzularning nomlanishi	o'quv soatlar miqdori	
		11-sinf	
		Nazariy	Amaliy
1	M.T.Kalashnikov avtomati AK-74, stvol osti granatamyoti GP-25 va parchalanuvchi qo'l granatalari RGD-5, F-1 larning vazifasi tuzilishi, ishlash tamoillari va jangovar xususiyati.	1	2
2	Quroldan otishning asoslari va qoidalari.	1	1
3	Nishonlarga o't ochish. Parchalanuvchi va tanka qarshi qo'l granatalarni uloqtirish texnikasi. Nazorat mashg'uloti.	-	3
Jami soat:		2	6

10-Mavzu. M.T.Kalashnikov avtomati AK-74, stvol osti granatamyoti GP-25 va parchalanuvchi qo'l granatalari RGD-5, F-1 larning vazifasi, jangovar xususiyati, umumiy tuzilishi va ishlash tamoyillari.

1-mashg'ulot: Amaliy. M.T.Kalashnikov avtomati AK-74 qurolini noto'liq qismlarga ajratish va yig'ish. Asosiy qism va mexanizmlarini nomini va vazifalarini o'rgatish.



2-mashg'ulot: Amaliy. M.T.Kalashnikov avtomati AK-74 qurolini ko'zdan kechirish va o'q otishga tayyorlash. O'qdonni o'q bilan to'ldirish, avtomatni o'qlash.

3-mashg'ulot: Nazariy. Stvol osti granatamyoti GP-25 qurolining vazifasi, jangovar xususiyati, umumiy tuzilishi va ishlash tamoyillari. Parchalanuvchi qo'l granatalari RGD-5 va F-1 larning vazifasi, jangovar xususiyati, umumiy tuzilishi va ishlash tamoyillari. Uni uloqtirishga tayyorlash tartibi va qoidalari.

11-Mavzu. Quoldan otishning asoslari va qoidalari.

1-mashg'ulot: Nazariy. Otish xodisasi va uning davrlari. O'qning boshlang'ich tezligi va uning otish jarayoniga ta'siri. Qurolning silkinishi va otish burchagi. O'qning yoysimon traektoriyasi. To'g'ri otish va uning amaliy ahamiyati. O'q tegadigan va tegmaydigan (o'lik fazo) bo'shliqlar.

2-mashg'ulot: Amaliy. Nishonga aniq otish. Nishonni tanlash. Otish jarayonida tuzatishlar kiritish. (Kichik kalibrli TOZ-8, TOZ-12 va pnevmatik IJ-38 miltiqlarida bajarish). Nishongacha bo'lgan masofani aniqlash usullari. Burchak kattaligi yordamida nishongacha bo'lgan masofani aniqlash. Minglik formulasi va uni amalda qo'llash.

12-Mavzu. Nishonlarga o't ochish. Parchalanuvchi va tanka qarshi qo'l granatalarni uloqtirish texnikasi

1-2-mashg'ulot: Amaliy. Kichik kalibrli TOZ-8, TOZ-12 va pnevmatik IJ-38 miltiqlaridan otish mashqlarini bajarish.

3-mashg'ulot: Amaliy. Parchalanuvchi qo'l granatalarini va tanka qarshi granatalarini uloqtirish mashqlarini bajarish.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARINING "UMUMHARBIY NIZOMLARI" BO'LIMI

№	Mavzularning nomlanishi	o'quv soatlar miqdori	
		11-sinf	
		Nazariy	Amaliy
1	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki xizmat Nizomi.	1	1
2	O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmati Nizomi.	1	1
3	Harbiy xizmatni o'tash tartibiga qarshi jinoyatlar. Harbiy prokuratura va harbiy sud. Jazoni o'tash intizom vzvodlari.	1	-
Jami soat:		3	2



13-Mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Ichki Nizomlari.

1-mashg‘ulot: Nazariy. Harbiy xizmatdagi sutkalik (Kunlik) naryadlarni turlari, unga tayyorgarlik ko‘rish va xizmat joylariga tarqatish tartibi. Vzvod bo‘yicha navbatchi va posbon majburiyatlari. Vzvod bo‘yicha naryadning xizmat joyi, jihozlanishi va qurollanishi.

2-mashg‘ulot: Amaliy. Vzvod bo‘yicha naryadni va harbiy xizmatchilarning “Trevoga” e‘lon qilinganda va yong‘in chiqqandagi harakatlari. Boshliqlar va boshqa harbiy xizmatchilar vzvodga kelganida navbatchi va posbonning harakati.

14-Mavzu. O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining Garnizon va qorovullik xizmati Nizomlari.

1-mashg‘ulot: Nazariy. Garnizon va qorovullik xizmati nizomining umumiy qoidalari. Qorovul xizmatini tashkil etish va tayyorlash.

2-mashg‘ulot: Amaliy. Qorovulning huquq va majburiyatlari, vazifasi, xizmat joyining jihozlanishi va qurollanishi. Soqchining xizmat joyidagi harakatlari.

15-Mavzu. Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar. Harbiy prokuratura va harbiy sud. Jazoni o‘tash intizom vzvodlari.

1-mashg‘ulot: Nazariy. Harbiy xizmatni o‘tash tartibiga qarshi jinoyatlar. Harbiy prokuratura va harbiy sud. Jazoni o‘tash intizom vzvodlari haqida tushuncha. (O‘zb.Res.JKning 279-302-moddalariga sharh)

“JISMONIY TAYYORGARLIK” BO‘LIMI

№	Mavzularning nomlanishi	o‘quv soatlar miqdori	
		11-sinf	
		Nazariy	Amaliy
1	To‘siqlar yo‘lagidan o‘tish. Nazorat mashg‘uloti.	-	4
Jami soat:		-	4

16-Mavzu. To‘siqlar yo‘lagidan o‘tish.

1-2-mashg‘ulot: Amaliy. To‘siqlar yo‘lagidan o‘tishni tanishtirish va mashqlarni bajarish tartibini o‘rgatish. (Qiz bolalar uchun 100, 1000 metrga yugurish)

3-4-mashg‘ulot: Amaliy. To‘siqlar yo‘lagidan o‘tish.



“TIBBIY BILIM ASOSLARI” BO‘LIMI

№	Mavzularning nomlanishi	o‘quv soatlar miqdori	
		11-sinf	
		Nazariy	Amaliy
1	Birlamchi tibbiy vositalar va jihozlar.	1	-
2	Shikastlanganda, baxtsiz hodisa sodir bo‘lganda va jarohatlanganda (yaralanganda) birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish. Nazorat mashg‘uloti.	1	1
Jami soat:		2	1

17-Mavzu. Birlamchi tibbiy vositalar va jihozlar.

1-mashg‘ulot: Nazariy. Tibbiy bog‘lamlar va bog‘lash uchun materiallar. Shaxsiy tibbiy bog‘lash jamlanmasi va ulardan foydalanish qoidalari. Shaxsiy tibbiy himoya vositalaridan, shaxsiy tibbiy dori qutisi. Sharoitdan kelib chiqqan xolda maxalliy vositalar yordamida birinchi tez tibbiy yordam ko‘rsatish.

18-Mavzu. Shikastlanganda, baxtsiz hodisa sodir bo‘lganda va jarohatlanganda (yaralanganda) birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.

1-mashg‘ulot: Nazariy. Jarohat (yara) to‘g‘risida tushuncha, jarohatning turlari. Jarohatlanganda birinchi tibbiy yordam. Tibbiy bog‘lam qo‘yish va bog‘lash uchun materiallar. Shaxsiy tibbiy bog‘lash jamlanmasidan foydalanish qoidalari.

2-mashg‘ulot: Amaliy. Kuyish, cho‘kish, sovuq urishi haqida tushuncha hamda shunday holatlar yuzaga kelganda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish. Qon ketishi turlari. Qon ketishini vaqtincha to‘xtatish usullari. Arteriya qon tomirlarini barmoq bilan bosish nuqtalari. Qon ketishida tibbiy tasma va qo‘lbola siquvchi bog‘lamdan foydalanish qoidalari. Suyak sinishi to‘g‘risida tushuncha. Suyak sinishining turlari va uning belgilari. Bosh suyagi, yelka, ko‘krak qafasi, oyoq yoki qo‘l suyaklari singanda birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish.



ISHCHI GURUH A'ZOLARI

No	F.I.Sh.	Ish joyi va lavozimi
1	Sotvoldiyev Abdulhashim Yulashovich	Nizoniy nomidagi TDPI Xarbiy kafedrasida o'qituvchisi
2	Abduvohidov Xusan Abduqulovich	Sirdaryo viloyati Xovos tumani 30-maktab CHQBT fani rahbari
3	Baxromov Baxtiyor Maxammadjonovich	Sirdaryo viloyati Xovos tumani XTBning metodisti
4	Karimov Timur Badritdinovich	Toshkent shahar, Yunusobod tumani 5- maktabning Ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari
5	Atajanov Hamdam Shokirovich	Toshkent shahar, Shayxontohur tumani 102-maktabning Ma'naviy ma'rifiy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari